

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

## **O'ZBEKİSTONDA TARİXİY- DEMOGRAFIK JARAYONLAR**

**2022**

**Hayitov Sh.A.** tarix fanlari doktori,  
professor



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“O‘ZBEKISTONDA TARIXIY-DEMOGRAFIK  
JARAYONLAR”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**O‘zbekiston tarixi**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** **Sh.A.Hayitov** tarix fanlari doktori, professor.

**Taqrizchi:** **K.J. Raxmonov** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2021 yil “30” dekabrdagi 5-sonli bayonnomasi)**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>10</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>24</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>68</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>71</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>77</b>

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **Kirish**

**“O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” moduli** oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirish maqsadida tashkil qilinadi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” modulining maqsadi:** O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, O‘zbekiston tarixini o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashishlar hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

### **“O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” modulining vazifalari:**

- “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni mazmun mohiyatini tadbiq etilishiga erishish;
- Urbanizatsiyani jadallashtirish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish;
- O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ma’ruza, amaliy va mustaqil ta’lim olish darslarini tashkil etish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma, malakalariga qo‘yiladigan talablar**

**“O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:**

- jahon va respublikamizning O‘zbekiston tarixi fanining rivoji haqida bilimlarni;

- Juhon sivilizatsiyasining mukammal, rivojlanib borish jarayonlarida O‘zbekiston tarixiy-demografik jarayonlar tarixi fanining alohida fan mavqeiga ega bo‘lganligini;
- Qadimgi, o‘rta asrlarda va hozirgi davrdagi O‘zbekiston tarixiy-demografik jarayonlar tarixining dolzarb muammolarni, tarixiy nazariyalarini mukammal o‘rganish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi zarur;
- kreativlik va ijodiylikni O‘zbekiston tarixiy-demografik jarayonlariga oid fanlarni o‘qitishda qo‘llana olish **malakalarini egallashi lozim**.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyliги**

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “**Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari**” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rnı**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar **O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar** orqali xorijiy tajribalarni o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar va yo‘nalishga mos zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtiradilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>		
		<b>Hammasi</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>	
			<b>Jami</b>	<b>jumladan</b>
			<b>Nazariy mashg‘ulot</b>	<b>Amally mashg‘ulot</b>
1	“O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni mazmun-mohiyati	2	2	2
2	Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi	2	2	2

	bandligini ta'minlash dasturlari mazmun-mohiyati				
3	Tarixiy demografiya fanini rivojlanishi tarixi	2	2	2	
4	O'zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlar	2	2	2	
5	Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish	2	2		2
6	Mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o'zgarishlar	2	2		2
7	Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari	2	2		2
8	Globallashuv davrida O'zbekiston jahon migratsiya jarayonlari	2	2		2
9	Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri	2	2		2
<b>Jami</b>		<b>18</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu: “O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni mazmun-mohiyati.**

**Reja:**

- “O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni respublika aholisi va uning farovonligi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlar.
- Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsadli dasturlari.

**2-mavzu: Ish o'rinalarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlari mazmun-mohiyati.**

**Reja:**

1. Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqilishi.
2. Milliy maqsadlari indiqatorlarini shakllantirilishi.

**3-mavzu: Tarixiy demografiya fanini rivojlanishi tarixi.**

**Reja:**

1. Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini o‘rganish fani sifatida.
2. Demografiya fanini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalishlar.

**4-mavzu: O‘zbekistonda mustaqillik yillarda demografik jarayonlar.**

**Reja:**

1. Mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar.
2. Aholi o‘sishi va joylashishi.

**AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu: Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish.**

**Reja:**

1. Mehnat resurslari joylashuvi jarayonlarini o‘rganish.
2. Mehnat resurslaridan foydalanish - ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

**2-mavzu: Mustaqillik yillarda demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar.**

**Reja:**

1. Aholi o‘sishi va joylashishi.
2. Aholi o‘sishi jarayonlarining aholi yosh tarkibiga ta’siri.

**3-mavzu: Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari.**

**Reja:**

1. Urbanizatsiyani jadallashtirish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar.

2. Ubanizatsiyani oqibatlari.

**4-mavzu: Globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlari.**

**Reja:**

1. Mehnat migratsiyasi.
2. Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari.

**5-mavzu: Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning  
aholi yosh tarkibiga ta’siri.**

**Reja:**

1. O‘zbekistondagi demografik o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’sirini o‘rganish.
2. Yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning demografik jarayonlarga ta’siri.


## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL**

### **TA’LIM METODLARI**

#### **1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)**

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir) ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

#### **2. “Keys-stadi” texnologiyasi**

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat

qiladi. U ta’lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiyligi mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

### **3. “Konseptual jadval” GO**

Ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda ta’lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatları rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:

Ўқитувчи ечими топилиши лозим бўлган мавзу (масала)ни аниклади

Талабалар мавзу ва ГОдан фойдаланиш қоидаси билан таништирилади

Талабалар кичик групкаларга биринчилиди

Групкалар ўзларига берилган топширикни бажаради

Групкалар ечимни синф (груп) жамоаси хукмига ҳавола этади

Групкаларнинг ечимлари синф (груп) жамоасида муҳокама қилинади

### **4. “Klaster” GO**

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

### **5. “Konferensiya” metodi**

Texnologiya ta’lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo’llarini topish asosida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarga o‘zlarida ijobiy fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

#### **6. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi**

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash ta’lim oluvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo‘nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

#### **7. “FSMU” metodi**

Grafik organayzer ta’lim oluvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:


№	Тушунчалар	(Φ)	(C)	(M)	(Y)
1.	Таълим методлари				
2.	Таълим воситалари				
3.	Таълимни ташхис қилиш				

### 8. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u



yoki bu tartibdagи faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida esa berilgan savolga

ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.

“Aqliy hujum” metodining og‘zaki turidan foydalangan holda quyidagi savollar beriladi:

1. Ta’lim jarayonida qadriyatlar tizimining o‘rnini ko‘rsating?
2. O‘zbekistonda ta’limni tashkil etishining asosiy bosqichlarini ochib bering?
3. Ta’lim jarayonining ichki imkoniyatlari va muammolariining muhim jihatlarini ta’riflab bering?
4. Boloniya deklaratsiyasining asosiy yutuqlari va kamchiliklari?
5. Ta’limning insonparvarlashuvi va axborotlashuvida falsafaning rolini ochib bering?
6. Ta’limning qaysi shakllarini bilasiz?

“Aqliy hujum” metodining yozma turidan foydalangan holda quyidagi savollarga yozma to‘liqroq variantda javob yozishlari talab etiladi:

1. Ta’lim falsafasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Dunyo ta’lim makonida gumanitar ta’limni tashkil etish imkoniyatlari?

<b>Aqliy xujum</b>	-(breystorming – miya bo‘roni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish
<b>Usulni asosiy g‘oyasi</b>	-g‘oyalar to‘plash, ularni baholash va tahlil kilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-xarakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalar taklif kilishga undaydi.
<b>Qoidalari</b>	Imkonи boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo‘yish.
<b>Ta’lim beruvchi</b>	Qatnashchilarni 3-4 guruhga bo‘ladi va har biriga muammolar taklif etadi ( <b>Ilova 1</b> ) -Ishtirokchilarni qo‘llab-qo‘vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, ha-yo‘q so‘zlari bilan); -yumshoq, ammo astoydil talabalarni boshkalarni tanqid

	<p>kilishdan kaytarib turadi;</p> <p>-har bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi;</p> <p>-talabalarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blis so‘rov) (<b>Ilova 2</b>).</p>
<b>Fidbeyk</b>	<p>-har bir g‘oyani muhokama qilish;</p> <p>-eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-kuvvatlash</p>

### 3. Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

#### Aqliy hujumni o‘tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g‘oyalarni topish;
- g‘oyalarni ularning ahamiyatliliga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g‘oyalarni paydo bo‘lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g‘oyalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

#### Aqliy hujum qoidalari:

- g‘oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g‘oyalalar rag‘batlantiriladi;
- barcha g‘oyalalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma’qul topsa muallifning o‘zi ham yozib boradi;
- “aqliy hujum” metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma’muriy jihatdan bog‘liq bo‘lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g‘oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o‘tkazishda Keynsning “ iqtisodchilar adashsalar ham ularni g‘oyasi kelajak uchun xizmat qiladi” degan qoidasiga amal qilish.

#### Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.


## “LOYIHA” metodi



**“Loyiha” metodi** - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o’tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



### **“Loyiha” metodining bosqichlari**

#### **ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH**

*Ta'lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o'z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqgacha)*

#### **“Insert jadvali”**

Tinlovchilarda ma'ruzalar va mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma'lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o'z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo'yicha mustaqil ishlab, yangi ma'lumotlar oladi, ularni matnda qo'yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

#### **Namuna:**

Insert jadvali

#### **“O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR”**

V	+	-	?


“V”- ..... haqidagi bilimlarimga javob beradi;

“+” ..... haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

“-” ..... yangi ma'lumotlar

“?” ..... mavzuga oid tug'ilgan savollar

### “T-jadval” metodi

Jadval shaklida berilgan topshiriqni mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish talab etiladi. Jadvalning o'ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlari bayon etiladi, masala yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

#### Namunalar:

##### **Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'limning o'ziga xos xususiyatlari**


##### **Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining yutuq va kamchiliklari**


### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligining fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:** “Dinlarni o‘rganishda samarali uslublardan biri mintaqaviy yondashuv” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

**“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

Tushuncha	Hal qiluvchi kuch	Samarasi nimada aks etadi	Yondashuvni ilgari surgan olimlar
<i>Qiyosiy dinshunoslik</i>			
<i>Vijdon erkinligi</i>			
<i>Din sotsiologiyasi</i>			
<i>Totem</i>			

**Izoh:** Bo‘s sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘s himcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn
“V” – tanish ma’lumot.		
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak		
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik		
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

### **“Bumerang” texnologiyasi**

**Maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### **Amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqika davomida sinchiklab o‘rganish talab etiladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi guruh a’zolarini o‘qilgan ma’lumot hakida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
3. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri o‘qigan ma’lumot hakida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.
4. Barcha dastlab shakllangan guruhlarga ishtirokchilar qaytadi, va fikr almashingan ma’lumot yuzasidan boshqa guruhlarga berish uchun savol shakllantiradi.
5. Har bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va to‘g‘ri javob uchun 1-3 gacha ball qo‘yiladi.
6. Trener-o‘qituvchi barcha guruhlar to‘plagan ballarni umumlashtirib, g‘olib guruhni e’lon qiladi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa:** Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so‘ng guruhda muxokama qiling

<p><i>1- guruxga vazifa</i></p>	<p>Multiskript bu axborot uzatishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bir tomondan katta hajmdagi videomateriallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o‘z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediyaviy formatlarni oladi. Bizni qiziqtirgan videotasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez va katta aniqlikda tanlab olish mumkin. Multiskript o‘z ichiga uchta blokni oladi – pleer, “stenogramma” va “mazmun”. Videomaterialni ko‘rish uchun pleer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Videotasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko‘rishi uch yo‘l bilan amalga oshirsa bo‘ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- <i>pleer tagida joylashgan kursov yordamida;</i></li> <li>- <i>“Stenogramma” blokida mat fragmentini bosib;</i></li> <li>- <i>“Mazmun” blokida sarlavhani aktivlashtirish orqali</i></li> </ul>
<p><i>2- guruxga vazifa</i></p>	<p><i>Slayd-shou.</i> Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo‘yiladi. Slayd-shou ovoz bilanbirgalikda audio-illustrasiya elementlarini, ya’ni audiositatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan to‘yintirilgan matnni o‘z ichiga olishi mumkin. Vizual ketma-ketlik ixtiyoriy. Ular voqeа joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturalar va h.k. bo‘lishi mumkin. Bu texnologiya reportaj, ocherk, ba’zida yangiliklarni illustrasiya qilish uchun kerak.</p>
<p><i>3- guruxga vazifa</i></p>	<p><i>Audioslayd-shou</i> – zamonaviy jurnalistikating multimediyaviyligi sabab yaratilgan fotoillustrasiyalashtirishning sintetik varianti bo‘lib, mustaqil janrga aylandi. Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo‘lgan. Ba’zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbirda yozib olingan ovozni qo‘llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo‘yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozitsiya yoki muallif o‘qigan matn bo‘lishi mumkin. Mazmunning asosi bo‘lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audiositata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqeа sodir bo‘lgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</p>

#### *4-guruxga vazifa*

- Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo ‘lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarni yoritishda, ob’ektlarni, peyzaj, joylarni tasvirga olishda ularning masshtabini ko ‘rsatishda aktualdir.
- Interaktiv foto – shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo ‘yilgan bo ‘lib, ularni bosganda matn, video, ssylka, ijtimoiy to ‘rlarning statuslari chiqadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

**1. Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni mazmun-mohiyati.**

**Reja:**

1. “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni respublika aholisi va uning farovonligi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar.
2. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsadli dasturlari.

**Tachnch co‘zlar:** *Qonun, Qaror, Farmon, Respublika, Prezident, aholi, aholini ro‘yxati, Konsepsiya, prognoz, modda, aholi daromadlari, qonunchilik, ijtimoiy qatlam.*

**“O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi. Aholini ro‘yxatga olish - O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida o‘tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tafsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 21-noyabrda qabul qilingan

Senat tomonidan 2020-yil 28-fevralda ma’qullangan

Ushbu Qonunning maqsadi aholini ro‘yxatga olish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, mazkur qonun quyidagi moddalardan iborat.

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi aholini ro‘yxatga olish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari  
Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

aholini ro‘yxatga olish - O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida o‘tkaziladigan, belgilangan sanada aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish hamda ularga ishlov berish davriy jarayoni;

aholini ro‘yxatga olish sanasi - aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va hisobga olish amalga oshiriladigan aniq payt (yil, oy, kun va soat);

respondentlar - aholini ro‘yxatga olish sanasida O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi, lekin aholini ro‘yxatga olish sanasida uning hududidan tashqarida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

ro‘yxatga olish varag‘i - ko‘rsatilgan savollar bo‘yicha shaxsga doir ma’lumotlarni yozib olish uchun belgilangan shakldagi blanka;

ro‘yxatga olish hujjatlari - aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayoniga taalluqli hujjatlar majmui;

ro‘yxatga oluvchi xodimlar - O‘zbekiston Respublikasining aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rishga va uni o‘tkazishga jalb etilgan, maxsus o‘quvdan o‘tgan voyaga yetgan fuqarolari;

uy xo‘jaligi - bitta turar joyda yoki uning bir qismida birgalikda yashaydigan, o‘zini yashash uchun barcha zarur narsalar bilan ta’minlaydigan, umumiyligi xo‘jalik

yuritadigan, pul mablag‘larini to‘liq yoki qisman birlashtiradigan va sarflaydigan shaxslar yig‘indisi. Bu shaxslar qarindoshlik munosabatlarida bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Uy xo‘jaligi bitta shaxsdan iborat bo‘lishi mumkin.

4-modda. Aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi

Aholini ro‘yxatga olishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir.

5-modda. Aholini ro‘yxatga olishning asosiy vazifalari

Aholini ro‘yxatga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash, xotin-qizlar va bolalar yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, oilalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha choralarmi ishlab chiqish maqsadida aholi tarkibidagi, mamlakatning demografik vaziyatdagi o‘zgarishlarni baholashga doir ma’lumotlar bazasini kengaytirish;

shaharlarni va boshqa aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, mehnat resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanishning uzoq, o‘rta va qisqa muddatli prognozlari hamda dasturlarini tayyorlash;

aholini ro‘yxatga olishlar oralig‘idagi davrda aholi soni va tarkibining joriy hisobini, hisob-kitoblarini hamda prognozlarini amalga oshirish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish.

6-modda. Aholini ro‘yxatga olishning asosiy prinsiplari

Aholini ro‘yxatga olishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davriylik;

umumiylilik va bir paytdalik;

ro‘yxatga olishning yakka tartibdaligi;

shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligi;

aholini ro‘yxatga olishni boshqarishning markazlashtirilganligi.

7-modda. Davriylik prinsipi

Aholini ro‘yxatga olish o‘n yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror sanasi va muddati ko‘rsatilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi. Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, qoida tariqasida, ro‘yxatga olishni o‘tkazish mo‘ljallangan sanadan kamida uch yil oldin kiritiladi.

8-modda. Umumiylit va bir paytdalik prinsipi

Aholini ro‘yxatga olishning yagona belgilangan sanasida shaxsga doir ma’lumotlarni barcha respondentlardan yig‘ish O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida bir paytning o‘zida amalga oshiriladi.

9-modda. Ro‘yxatga olishning yakka tartibdaligi prinsipi

Shaxsga doir ma’lumotlar yig‘ilayotganda ro‘yxatga olish varag‘i har bir respondent uchun yakka tartibda to‘ldiriladi.

10-modda. Shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligi prinsipi

Aholini ro‘yxatga olishning shaxsga doir ma’lumotlari maxfiy bo‘lib, respondentning roziligesiz oshkor etilmaydi va tarqatilmaydi.

11-modda. Aholini ro‘yxatga olishni boshqarishning markazlashtirilganligi prinsipi O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish aholini ro‘yxatga olishni yagona boshqaruva tizimini yaratish asosida markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

12-modda. Aholini ro‘yxatga olish sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Aholini ro‘yxatga olish sohasini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha respublika komissiyasi, aholini ro‘yxatga olish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘z vakolatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

13-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining aholini ro‘yxatga olish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

aholini ro‘yxatga olish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartibini, Aholini ro‘yxatga olish dasturini hamda ro‘yxatga olish varag‘ining shakllarini tasdiqlaydi; aholini ro‘yxatga olishning yakuniy ma’lumotlaridan foydalanish tartibini belgilaydi;

davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholini ro‘yxatga olish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

aholini ro‘yxatga olishga jismoniy va yuridik shaxslarni jalb etish va ularga haq to‘lash tartibini belgilaydi.

14-modda. O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha respublika komissiyasi

O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha respublika komissiyasi:

aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlar o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlaydi;

aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir ishlar jarayonining muvofiqlashtirilishi va monitoringini amalga oshiradi;

aholini ro‘yxatga olish natijalarining tahlilini o‘tkazadi;

aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni moliyalashtirish, aholini ro‘yxatga olish materiallariga ishlov berishni tashkil etish va uning yakuniy natijalarini e’lon qilish masalalariga doir takliflarni ko‘rib chiqadi;

aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazishda ishtirok etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarni ularning ishiga haq to‘lash masalalarini hal qilgan holda jalb etishni tashkil etadi;

xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha respublika komissiyasini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasida aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha respublika komissiyasining ishchi organidir.

15-modda. Aholini ro‘yxatga olish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi aholini ro‘yxatga olish sohasidagi maxsus vakolatli organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

ro‘yxatga olish hujjatlari shakllarini, ro‘yxatga oluvchi xodimlar guvohnomasi shaklini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi; Aholini ro‘yxatga olish dasturini va ro‘yxatga olish varag‘ining shakllarini ishlab chiqadi; ro‘yxatga olish varaqlari tayyorlanishini va hududlarga yetkazilishini ta’minlaydi; aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni muvofiqlashtiradi; ro‘yxatga oluvchi xodimlarni tanlab olish va o‘qitish tartibini, shuningdek shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish tartibini belgilaydi va ularga ishlov berishni amalga oshiradi; ro‘yxatga olish varaqlari va boshqa ro‘yxatga olish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan vaqtincha saqlanishi), yo‘q qilinishi tartibini belgilaydi; ro‘yxatga olish varaqlari va boshqa aholini ro‘yxatga olish hujjatlarini saqlash va yo‘q qilishni ta’minlaydi.

16-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholini ro‘yxatga olish sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha hududiy komissiyalarini tuzadi; ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini hisobga olgan holda aholi punktlarida doimiy yashovchi aholi sonini ko‘rsatgan holda ushbu punktlarning to‘liq ro‘yxati tuzilishini ta’minlaydi; ma’muriy-hududiy birliklarda ko‘chalarining nomlari, uylar va xonadonlarning raqamlari ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar bo‘lishini ta’minlaydi; jalb etilgan ro‘yxatga oluvchi xodimlar tarkibini tasdiqlaydi; ro‘yxatga oluvchi xodimlarni tanlab olish va o‘qitishni tashkil etadi; aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish doirasidagi ishlarni bajarishga jalb

etiladigan shaxslarning o‘qishi va ishlashi uchun yaroqli mebel hamda aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtinchalik xonalar, shuningdek zarur transport vositalari berilishini ta’minlaydi; ro‘yxatga olish varaqlarini va boshqa ro‘yxatga olish hujjatlarini vaqtincha saqlash uchun qo‘riqlanadigan xonalar ajratish yuzasidan choralar ko‘radi; aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha ishlarning muvofiqlashtirilishini tashkil etadi.

17-modda. Vazirliklarning, davlat qo‘mitalarining va idoralarning aholini ro‘yxatga olishda ishtirok etishi

Aholini ro‘yxatga olishni tashkil etish uchun masul bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar maxsus vakolatli davlat organiga aholini ro‘yxatga olish sohasidagi vazifalarni bajarish yuzasidan ko‘maklashadi.

18-modda. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining aholini ro‘yxatga olishda ishtirok etishi

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari:

aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rishga va uni o‘tkazishga ko‘maklashishi; aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida xabardor qilish jarayonida ishtirok etishi; joylarda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin.

19-modda. Respondentlarning huquq va majburiyatları

Respondentlar:

o‘zining shaxsga doir ma’lumotlari nima maqsadda yig‘ilayotganligini, ushbu ma’lumotlardan kim va qanday tarzda foydalanishini bilish;

o‘zi uchun to‘ldirilgan ro‘yxatga olish varaqlari bilan tanishib chiqish, ro‘yxatga olish varaqlariga kiritilgan shaxsga doir ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchlilagini aniqlashtirish;

ro‘yxatga oluvchi xodimlardan tegishli guvohnomani ko‘rsatishini talab qilish, rad etilgan taqdirda esa — ro‘yxatga olish varag‘idagi savollarga javob bermaslik;

ro‘yxatga olish varag‘ining shakliga binoan shaxsga doir ishonchli ma’lumotlarni

taqdim etish huquqiga ega.

Respondentlar aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishga monelik qilmasligi shart.

20-modda. Ro‘yxatga oluvchi xodimlarning huquq va majburiyatlari

Ro‘yxatga oluvchi xodimlar:

ro‘yxatga olish varag‘iga binoan respondentlardan shaxsga doir ma’lumotlarni olish;

aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq ishlarni bajarganlik uchun mehnatiga haq olish huquqiga ega.

Ro‘yxatga oluvchi xodimlar:

shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ishni boshlashdan oldin respondentga o‘z guvohnomasini ko‘rsatishi;

o‘z vakolatlariga muvofiq ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishi;

shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida Aholini ro‘yxatga olish dasturida belgilangan savollar ro‘yxatiga rioya etishi, ularning mazmuni buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlashi, ularning mazmunini oshkor qilmasligi shart.

21-modda. Aholini ro‘yxatga olish dasturi

Shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish amalga oshiriladigan savollar ro‘yxati Aholini ro‘yxatga olish dasturidir.

Aholini ro‘yxatga olish dasturi quyidagi savollarni o‘z ichiga oladi:

familiyasi, ismi, otasining ismi; tug‘ilgan sanasi va joyi; yoshi; jinsi;

millati; fuqaroligi; yashash joyi (turgan joyi); tillarni bilishi; ma’lumoti; nikoh holati; bolalarining soni; uy xo‘jaligi tarkibi; uy-joy sharoitlari; bandligi; yashash uchun mablag‘lar manbalari; migratsiya (ichki va tashqi).

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Aholini ro‘yxatga olish dasturiga qo‘srimcha ravishda boshqa savollar kiritilishi mumkin.

Javoblari davlat sirlariga va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirga taalluqli axborotni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzuvchi savollar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ro‘yxatga olish varag‘ining shakllari Aholini ro‘yxatga olish dasturi asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

22-modda. Sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olish Aholini ro‘yxatga olish dasturi loyihasini va ro‘yxatga olish hujjatlarining shakllarini, shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish hamda ularga ishlov berishni, shuningdek aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha asosiy tadbirlarni bir yoki bir necha ma’muriy-hududiy birliklarda sinovdan o‘tkazish sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olishdir.

Sinov tariqasida aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

23-modda. Shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish tartibi

Shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish respondentlar yashaydigan (turadigan) turar joylarni va boshqa xonalarni aylanib chiqish chog‘ida yoxud mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ushbu maqsadlar uchun beriladigan xonalarda respondentlar so‘rovini o‘tkazish hamda ro‘yxatga olish varaqlarini to‘ldirish orqali amalga oshiriladi.

Shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish axborot xavfsizligini ta’minalash talablarini hisobga olgan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Respondentlar so‘rovi davlat tilida o‘tkaziladi. Davlat tilini bilmaydigan respondentlar ona tilida yoki erkin ravishda tanlangan muloqot tilida so‘rovdan o‘tkazilishi mumkin.

Ro‘yxatga olish varaqlari ro‘yxatga oluvchi xodimlar tomonidan respondentlarning so‘zлari asosida to‘ldiriladi.

Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish muddati ichida yashash (turgan) joyida hozir bo‘lмаган yoki voyaga yetмаган shaxslar bo‘lgan respondentlar to‘g‘risidagi shaxsga doir ma’lumotlar ular uy xo‘jaligining voyaga yetgan a’zolari tomonidan ma’lum qilinadi. O‘ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar to‘g‘risidagi shaxsga doir ma’lumotlar ularning vasiylari yoxud homiylari tomonidan ma’lum qilinadi.

Respondent ro‘yxatga olish varag‘idagi savollarga javob berishni rad etgan taqdirda ro‘yxatga olish varag‘i fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridagi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi mavjud ma’lumotlar asosida to‘ldiriladi.

Aholini ro‘yxatga olish dasturida nazarda tutilmagan savollar bo‘yicha shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish taqiqlanadi.

24-modda. Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish

Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish sanasida chaqiruv asosida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar bo‘lgan, shuningdek kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga jalb etilgan harbiy xizmatchilar bo‘lgan va ularning yopiq hududlarda yashayotgan oila a’zosi bo‘lgan respondentlar haqidagi shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish harbiy qism komandiri yoki u vakolat bergen shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish sanasida:

bolalar internatlarda, tarbiya muassasalarida, “Bolalar shaharchalari” da;

ijtimoiy muassasalarda;

diniy muassasalarda;

shifoxonalarda va boshqa sog‘liqni saqlash tashkilotlarida;

zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlarida;

qamoqda saqlash joylarida, tergov hibsxonasida, axloq tuzatish muassasalarida va maxsus muassasalarda yashayotgan (bo‘lgan) respondentlar to‘g‘risidagi shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish ushbu qismda nazarda tutilgan muassasalar hamda tashkilotlar ma’muriyatlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalarini xodimlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ularning o‘zi bilan birga bo‘lgan oila a’zolari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo

tashkilotlardagi kvotalangan lavozimlarga yuborilgan fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligidaakkreditatsiya qilingan chet davlatlar doimiy vakolatxonalarining, xalqaro, hukumatlararo tashkilotlar va chet davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalarining xodimlari bo‘lgan chet el fuqarolari hamda ularning oila a’zolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq diplomatik imtiyozlarga va immunitetga ega bo‘lgan boshqa shaxslar ro‘yxatga olinmaydi.

25-modda. Aholini ro‘yxatga olishning yakuniy ma’lumotlari

Shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish va ularga ishlov berish natijasida shakllantirilgan yig‘ma statistik axborot aholini ro‘yxatga olishning yakuniy ma’lumotlaridir.

Aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy holatining asosiy ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi yakuniy ma’lumotlar jismoniy va yuridik shaxslar uchun ochiqdir hamda ular ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi va maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Aholini ro‘yxatga olishning yakuniy ma’lumotlaridan foydalanishda mulkiy va ma’naviy zarar yetkazishga, fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari amalga oshirilishiga to‘sinqilik qilishga yo‘l qo‘ymaydi.

26-modda. Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirish

Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

27-modda. Nizolarni hal etish

Aholini ro‘yxatga olish sohasida yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

28-modda. Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzilganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

29-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

30-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

31-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

### **Nazorat savollari**

1. “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qanday maqsadlarni ko‘zlab qa’bul qilingan?
2. Ushbu Farmon qanday maqsadlarni ko‘zlab qa’bul qilindi?
3. Aholini ro‘yxatga olish O‘zbekiston Respublikasining qaysi hududlarin qamrab olishi ko‘zda tutilgan?
4. Aholini ro‘yxatga olish qaysi sanadan boshlab amalga oshiriladi?
5. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 21-noyabrda qanday qonun qabul qilingan?
6. Mazkur qonunni Senat tomonidan ma’qullanishi qanday kechdi?
7. Aholi ro‘yxatini shakllantirishga jalb qilinadiganlarga to‘lov qay tariqa amalga oshiriladi?
8. Aholini ro‘yxatga olishga kimlar jalb qilinadi?

## **2-MAVZU: Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlari mazmun-mohiyati.**

**Reja:**

1. Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqilishi bo‘yicha Prezident qarori.
2. Milliy maqsadlari indiqatorlarini shakllantirilishi.

**Tayanch so‘zlar:** *Bandlik, yangi ish o‘rinlari, aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash, indiqator, iqtisodiy o‘sish, tadbirkorlik, Mehnat kodeksi, bandlik monitoringi.*

### **Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqilishi bo‘yicha Prezident qarori**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydag‘i PQ-3001-soni bilan tasdiqlangan Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi 5-bandining ijrosini ta’minlash, shuningdek, yangi ish o‘rinlari tashkil etish va aholini ish bilan ta’minlashda faol ishtirok etayotgan ish beruvchilarni ijtimoiy rag‘batlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Savdo-sanoat palasasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining:

2018 yildan boshlab yangi ish o‘rinlarini faol tashkil etayotgan, shuningdek, aholini ish bilan ta’minlayotgan ish beruvchilarga nisbatan rag‘batlantirish chora-tadbirlarini qo‘llashni nazarda tutuvchi «Ijtimoiy mas’uliyat va samaradorlik» reyting tizimini joriy etish;

joriy etilayotgan «Ijtimoiy mas’uliyat va samaradorlik» reyting tizimi doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi va Savdo-sanoat palatasining mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishni

tashkil etish;

ish beruvchilar o‘rtasida «Ijtimoiy mas’uliyat va samaradorlik» respublika va hududiy tanlovlari (keyingi o‘rinlarda tanlov deb ataladi) har yili o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari qabul qilinsin.

2. Yangi ish o‘rinlari tashkil etish va aholini ish bilan ta’minlashda faol ishtirok etayotgan ish beruvchilarining reytingini aniqlash, shuningdek, ularga ijtimoiy rag‘batlantirish choralarini qo’llash tartibi to‘g‘risidagi nizom muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda:

a) ish beruvchilarining ish o‘rinlari tashkil etish va ularni saqlash, aholini ishga joylashtirish, xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini ta’minlash bo‘yicha faoliyatini baholash natijalari asosida ularning reytingini tuzish metodikasini ikki oy muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

b) har yili 15 dekabrgacha «TOP-100» eng yaxshi yuzta tashkilot reytingi ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishini va ushbu tashkilotlarga (ish beruvchilarga) tegishli sertifikatlar berilishini ta’minasin;

v) «Ijtimoiy mas’uliyat va samaradorlik» respublika tanlovi va hududiy tanlovlari to‘g‘risidagi nizomlarni bir oy muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin hamda unda:

tanlovda ishtirok etish uchun axborot taqdim etish shakllari;

tanlov g‘oliblarini tanlash mezonlari;

tanlovni o‘tkazish va uning g‘oliblarini mukofotlash tartibi;

tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa tadbirlarni amalga oshirish tartibotlarini belgilash nazarda tutilsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki:

a) respublika tanlovi quyidagi nominatsiyalarda o‘tkaziladi:

«Ish o‘rinlarini tashkil etgani va aholini ishga joylashtirishni rivojlantirgani uchun»;

«Mehnatni samarali muhofaza qilgani va ishlab chiqarishda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratgani uchun»;

«Ijtimoiy sheriklikni rivojlantirgani uchun»;

«Tashkilotda yoshlarga oid faol siyosatni amalga oshirgani uchun»;

b) hududiy tanlovlarni nominatsiyalari tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan belgilanadi;

v) tanlovlarni o‘tkazish tadbirlari tanlov tashkilotchilarini tomonidan moliyalashtiriladi.

Tanlov tashkilotchilarini O‘zbekiston Badiiy akademiyasi bilan birgalikda 2018 yil 1 fevralgacha har bir nominatsiya bo‘yicha tanlov g‘oliblariga mukofotlar eskizlarini tayyorlasin va tasdiqlasınlar.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hududiy tanlovlarning yuqori tashkiliy saviyada o‘tkazilishini va g‘oliblarning respublika tanlovi nominatsiyasiga taqdim etilishini ta’minlasinlar.

6. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga tanlovlarning keng yoritilishini tashkil etish, ularning ishtirokchilarini va g‘oliblari to‘g‘risidagi axborot materiallarini respublika hamda mahalliy ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan elektron ommaviy axborot vositalarida joylashtirish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorming bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari - Moliya vaziri J.A. Qo‘chqorov hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri A.A. Xaitov zimmasiga yuklansin.

1. Ushbu Nizom yangi ish o‘rnlari tashkil etish va aholini ish bilan ta’minlashda faol ishtirok etayotgan ish beruvchilar reytingini (keyingi o‘rnlarda reyting deb ataladi) aniqlash, shuningdek, ularga ijtimoiy rag‘batlantirish choralarini qo‘llash tartibini belgilaydi.

2. Reyting yangi ish o‘rnlari tashkil etish va aholini ish bilan ta’minlashni rivojlantirishda tashkilotlar (keyingi o‘rnlarda ish beruvchilar deb ataladi) rahbarlarining manfaatdorligini rag‘batlantirish maqsadida ushbu Nizomga

muvofiq sxema bo‘yicha aniqlanadi.

3. Reyting har yili aniqlanadi. Kalendar yil reytingni aniqlash uchun hisobot davri hisoblanadi.

4. Reyting quyidagi tamoyillar asosida aniqlanadi:

qonuniylik;

ochiqlik;

xolislik;

ishtirokchilarning teng huquqliligi.

5. Reytingda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqa, uy-joy kommunal xo‘jaligi va aholiga xizmatlar ko‘rsatish sohasida, shuningdek, boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan ish beruvchilar ishtirok etadilar.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb ataladi) reytingni aniqlashni tashkiliy va texnik jihatdan ta’minlaydi.

2-bob. Reytingda ishtirok etish tartibi

7. Vazirlik reytingni aniqlash to‘g‘risidagi axborotni har yili 15 maygacha ommaviy axborot vositalarida va o‘zining rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.

8. Ish beruvchilar reytingda ishtirok etish uchun Vazirlikka har yili 15 avgustgacha quyidagi hujjatlarni (qog‘oz va elektron shaklda) taqdim etadi:

reytingda ishtirok etish uchun ushbu Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha buyurtmanoma;

ushbu Nizomga muvofiq shakl bo‘yicha hisobot davridagi va oldingi yilning shu davridagi o‘z faoliyati ko‘rsatkichlari to‘g‘risida axborot;

ish beruvchining ijtimoiy mas’uliyati amaliyotini tasdiqlovchi mavjud ijtimoiy dasturlar to‘g‘risida ma’lumotnomaga yoki boshqa axborot (jamoaviy shartnomalar, axborot bukletlari, fotosuratlar va boshqa materiallar);

ish beruvchining o‘z faoliyati ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga va ushbu Nizomga muvofiq ko‘rsatkichlarning belgilangan ro‘yxati bo‘yicha ish beruvchini o‘rganishga rasmiy roziligi.

9. Ushbu Nizomning muvofiq reytingda ishtirok etish uchun taqdim etilgan hujjatlar tashkilot rahbari yoki uning vakolatli vakili imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi (tadbirkorlik sub'ektlaridan muhr bilan tasdiqlash talab qilinmaydi).

(9-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 10 avgustdagi 661-sonli tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.08.2019 y., 09/19/661/3571-son)

10. Vazirlik har yili 25 avgustgacha taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilganini tekshiradi.

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

11. Vazirlik tomonidan har yili 1 avgustgacha kamida yetti kishidan iborat tarkibda reyting yakunlarini sarhisob qilish bo‘yicha ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Komissiya deb ataladi) tuziladi.

Komissiya tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan tasdiqlanadi va Komissiya raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a’zolaridan iborat bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining birinchi o‘rinbosari lavozimi bo‘yicha Komissiya raisi hisoblanadi.

Komissiyaning huquq va majburiyatlarini hamda ish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan belgilanadi.

12. Komissiya tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi vakillari, shuningdek, boshqa vazirliklar va idoralar, xo‘jalik birlashmalari vakillari kiritiladi.

13. Komissiya, agar uning majlisida Komissiya a’zolarining kamida yarmi ishtirok etsa, qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘ladi. Komissiya qarorlari majlisda ishtirok etgan Komissiya a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda, Komissiya raisi, u bo‘limganda esa — Komissiya raisining o‘rinbosari ovoz bergen qaror qabul qilinadi.

14. Komissiya qarori Komissiya kotibi yuritadigan bayonnomaga bilan

rasmiylashtiriladi va Komissiya raisi, u bo‘lmaganda — Komissiya raisining o‘rinbosari tomonidan imzolanadi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Bandlik va mehnatni muhofaza qilish Respublika ilmiy markazi (keyingi o‘rinlarda Ishchi organ deb ataladi) Komissiyaning ishchi organi hisoblanadi.

4-bob. Reytingni aniqlash tartibi

16. Komissiya ushbu Nizomning ko‘rsatilgan va ish beruvchilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqish natijalari bo‘yicha Vazirlik axboroti asosida har yili 1 sentabrgacha ish beruvchilarni reytingda ishtirok etishga ruxsat berish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Quyidagilar:

ushbu Nizomga qayd etilgan axborotning mos kelmasligi yoki uning to‘liq hajmda taqdim etilmamasligi;

ushbu Nizomning nazarda tutilgan muddatga rioya etilmamasligi ish beruvchining reytingda ishtirok etishini rad etish uchun asos hisoblanadi.

17. Ish beruvchining reytingda ishtirok etishiga ruxsat etish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan so‘ng Ishchi organ ish beruvchining faoliyat ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini oshkor qilishga rasmiy roziligi asosida davlat statistika organlaridan reytingda ishtirok etish bo‘yicha buyurtmanomalarini ekspertizadan o‘tkazish uchun zarur axborotni so‘rab oladi.

18. Ishchi organ reytingda qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ularning davlat statistika organlaridan olingan axborotga, shuningdek, ISO 26000 — «Ijtimoiy mas’uliyat bo‘yicha qo‘llanma» xalqaro standartiga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazadi.

Ekspertiza davomida reytingda qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarda nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, Ishchi organ boshqa davlat organlari va tashkilotlarda mavjud bo‘lgan zarur hujjatlar hamda axborotni o‘zaro axborot hamkorligi orqali, shu jumladan elektron shaklda mustaqil oladi.

Ekspertiza o‘tkazish uchun qo‘srimcha ravishda olingan hujjatlar va ma’lumotlar ish beruvchi tomonidan avval taqdim etilgan hujjatlar bilan birgalikda

baholanadi.

19. Ekspertiza natijalari to‘g‘risidagi axborot va unga ilova Ishchi organ tomonidan reyting natijalarini chiqarish uchun Komissiyaga 15 sentabrgacha yuboriladi.

5-bob. Reyting yakunlarini sarhisob qilish va ish beruvchilarni ijtimoiy rag‘batlantirish choralarini qo‘llash

20. Har bir ish beruvchi bo‘yicha reyting yakunlari Komissiya tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va Savdo-sanoat palatasi bilan kelishgan holda, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Ish beruvchining reytingini tuzish metodikasiga muvofiq faoliyatning har bir ko‘rsatkichi bo‘yicha to‘plangan ballar sonini jamlash yo‘li bilan har yili 1 oktabrgacha sarhisob qilinadi.

21. Ish beruvchining reytingini tuzish metodikasiga muvofiq ish beruvchilarning har bir guruhi bo‘yicha 1 - 6-o‘rnlarni egallagan g‘oliblar (keyingi o‘rnlarda reyting g‘oliblari deb ataladi) aniqlanadi.

22. Reyting yakunlari O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining qo‘shma qarori bilan tasdiqlanadi. Qo‘shma qaror loyihasi Komissiya bayonnomasi asosida tayyorlanadi.

23. Har yilgi reyting g‘oliblari joriy yilning 15 noyabridan kechiktirmay faxriy sertifikatlar bilan taqdirlanadi.

Reytingda qatnashgan barcha ish beruvchilar Vazirlikning minnatdorlik xatlari bilan taqdirlanadi.

Respublika tanlovi va hududiy tanlovlari g‘oliblari har yili yil yakunlari bo‘yicha tantanali vaziyatda taqdirlanadi.

24. Faxriy sertifikatlar O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan reytingda g‘olib chiqqan tashkilotlar rahbarlariga yoki ularning vakolatli shaxslariga topshiriladi.


25. Yuqori reyting bahosini olgan 100 nafar ish beruvchi ko‘rsatilgan reyting yakunlari har yili 20 noyabrdan kechiktirmay respublika va mahalliy bosma hamda

elektron ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Yangi ish o'rnlari tashkil etish va aholini ish bilan ta'minlashda faol ishtirok etayotgan ish beruvchilarning reytingini aniqlash, shuningdek, ularga ijtimoiy rag'batlantirish choralarini qo'llash tartibi to'g'risidagi

### **Ish beruvchilar reytingini aniqlash va ularga ijtimoiy rag'batlantirish choralarini qo'llash tartibining**

#### **SXEMASI**



## **Milliy maqsadlari indiqatorlarini shakllantirilishi.**

2019 yil 6 dekabr Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 martdagi “2019 yilda aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmasi to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 16 oktabrdagi “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi yuzasidan matbuot anjumani o‘tkazildi. Mehnat bozoridagi talab va takliflardan kelib chiqib, joriy yil ilk marotaba davlat buyurtmasi maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi va unga ko‘ra 2019 yilda 370 mingta yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va 182 ming nafar aholi bandligini ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Shunga muvofiq, mutasaddi vazirliklar, idoralar va xo‘jalik boshqaruvi organlari va hokimliklar tomonidan taqdim qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, **joriy yilning 10 oy davomida** respublika bo‘yicha **304,5 mingta** ish o‘rinlari yaratilgan yoki 10 oylik prognoz **119,7 foizga** bajarilgan. Xususan, vazirliklar, idoralar va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan tarkibiga kiruvchi **640 ta** yirik loyihalarni amalga oshirish orqali **37,0 mingta** ish o‘rni yaratilgan.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning rolini yanada oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida **kichik korxonalar va mikrofirmalar hisobiga 146 mingta yangi ish o‘rinlari** tashkil etilgan.

Joriy yilning 10 oyida faoliyat ko‘rsatmayotgan, samarasiz foydalaniayotgan binolar va qurilishi tugallanmagan **1059 ta** ob’ektlar amalga oshirish hisobiga **13,5 mingta** ish o‘rni yaratilgan.

Davlat budgeti mablag‘lari va davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ishga tushgan ijtimoiy va boshqa ob’ektlar hisobiga **14,2 mingta** ish o‘rinlari tashkil qilingan bo‘lib, shulardan budget mablag‘lari hisobiga **238 ta** loyihada **4,6 minta** ish o‘rni, davlat xususiy-sherikchilik asosida **1 699 ta** loyihada **9,6 mingta** ish o‘rni yaratilgan.

Hunarmandchilikni rivojlantirish, shuningdek, xalq amaliy san’atini targ‘ib etish va qo‘llab-quvvatlash natijasida qariyb **21,3 ming** nafar aholi bandligi

ta'minlangan. Hunarmandchilik sohasi yaxshi rivojlangan Marg'ilon shahrida 705 ta, Rishton tumanida 638 ta, Qo'qon shahrida 512 ta, Namangan shahrida 931 ta ish o'rni yangi ro'yxatdan o'tgan hunarmandlar hisobiga yaratilgan.

Qolaversa, tijorat banklari va jamg'armalarning maqsadli mablag'lari hisobidan jami **72,3 mingta** ish o'rni tashkil etilgan.

**"Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak"** degan prinsip asosida "**Siz uchun xizmat qilish biz uchun sharaf**" shiori ostida bu yildan joriy qilingan "**Yagona oyna**" tamoyili asosida mehnat organlari tomonidan **659,8 ming** jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan, **295,2 ming** aholining davlat buyurtmasi doirasida yaratilayotgan va bo'sh (vakant) ish o'rinalariga ishga joylashishiga ko'maklashildi, **32,8 ming** ishsiz aholi bugungi kunda mehnat bozoridagi talabdan kelib chiqib, **kasbga o'qitildi** hamda ushbu maqsadlar uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan **34,0 mlrd. so'm** sarflandi.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sod qaroriga asosan tumanlar (shaharlar) hokimlarining qarorlari asosida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 2019 yilda **18,0 mingdan ziyod** ish beruvchilarda kvota qilingan ish o'rinalariga **79,6 ming ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi toifadagilar ishga joylashgan.**

**Subsidiya** va **grant** berish uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan **15 mlrd.so'm** ajratildi.

Hozirgi kunda jami **9,1 mlrd. so'm miqdorda** subsidiyalar berildi, **10 ming** ishsiz aholi bandligi ta'minlandi hamda **957,1 mln. so'm** ajratilgan **grant** mablag'alari evaziga **1300 nafar** ishsiz aholi kasbga o'qitildi.

Bandlik jamg'armasi mablag'lari hisobidan **131,1 mlrd. so'm** tijorat banklari orqali ishsiz shaxslarga, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarga, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarga yangi ish o'rinalari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik loyihalarni amalga oshirish uchun **mikrokreditlar ajratilgan, 3,4 ming** fuqaroning bandligi ta'minlangan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 16 oktabrdagi "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qonuni bilan O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi monopoliyaga chek qo'yildi va bu borada faoliyat yuritish uchun xususiy sektorlarga imkoniyat yaratildi.

Bugungi kunga kelib, **xususiy bandlik agentliklar** soni **90 taga** yetkazildi va ulardan **60 tasi** fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish faoliyati bilan shug'ullanish huquqini (litsenziya) olgan.

Xususiy bandlik agentliklar tomonidan **41,3 ming** fuqarolarga xizmatlar ko'rsatilgan. Asosan Farg'ona (14,2 ming), Andijon, Namangan, Samarqand (4,3 mingdan), Buxoro (2,8 ming), Qashqadaryo (2,4 ming) va Samarqand (3,7 ming) viloyatlarining fuqarolariga xizmatlar ko'rsatilgan. **1,9 ming** fuqaro tashkillashtirilgan holda Rossiya, Turkiya, Litva, Latviya, Polsha, Birlashgan Arab Amirliklari, Isroil va boshqa mamlakatlariga ishga yuborilgan bo'lsa, **77 nafar fuqaroni O'zbekiston** hududida ishga joylashtirgan.

Xususiy bandlik agentliklari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular tomonidan fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash va bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish yo'lida tegishli chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Matbuot anjumani davomida shu kabi dolzarb masalalar xususida fikr almashildi.

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-3001-sonli nimaga bag'ishlangan?
2. Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi nimani nazarda tutadi?
3. Ushbu Farmon qanday maqsadlarni ko'zlab qa'bul qilindi?
4. Aholini ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasining qaysi hududlarini qamrab olishi ko'zda tutilgan?
5. Aholini ro'yxatga olish qanday maqsadda amalga oshiriladi?

6. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 21-noyabrdan qanday qonun qabul qilingan?
7. Qonuniy migratsiya nima?
8. Aholi yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha qanday amaliy ishlar amalga oshirilmoqda?
9. Xususiy bandlik agentliklari maqsadi nimada?

### **3-MAVZU: Tarixiy demografiya fanini rivojlanishi tarixi.**

#### **Reja:**

1. Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini o‘rganish fani sifatida.
2. Demografiya fanini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalishlar.

**Tayanch so‘zlar:** *tarixiy demografiya, demografiya, rivojlanish dinamikasi, aholi tarkibi, hududlar bo‘yicha rivojlantirish, aholi salomatligi, o‘sish suratlari.*

### **Tarixiy demografiya – demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini o‘rganish fani sifatida.**

Aholining yosh tarkibi, ijtimoiy va demografik rivojlanishda tug‘ilish va o‘lim jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, tug‘ilish yuqori bo‘lgan hududlarda bolalar salmog‘i yu qori bo‘ladi, aksincha tug‘ilish darajasi past bo‘lgan hollarda esa qariyalar salmog‘i yuqori va o‘lim holatlari ko‘proq bo‘ladi. O‘zbekiston aholisining yosh tarkibiga oid to‘liq ma’lumotlar aholi ro‘yxati va statistik ma’lumotlarda berilgan. Mazkur tadkiqotda respublika shahar aholisining yosh tarkibi 1959, 1970, 1979, 1989 yillarda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlari va undan keyingi yillardagi statistik ma’lumotlar asosida tahlil etildi va qarish indeksi dinamikasi tuzildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shahar aholisining yosh tarkibi, undagi ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillar ta’sirida o‘zgarib turgan (jadval). Jadval O‘zbekistonda shahar aholisining yosh tarkibi dinamikasi, ming qishi hisobida1 Insonlar/ yosh rypyxlari 1959 1970 1979 1989 1991 2000 2004 Bolalar

(0-15 yosh) 921,0 1642,6 2247,4 2958,1 3062,1 3207,4 2913,9 • Mehnat yoshidagi aholi (16-54 ayol, 16- 59 erkak) 1532,5 2218,4 3436,7 4321,8 4459,0 5123,8 5694,8 Qariyalar (55+ ayol, 60+ erkak) 274,2 460,6 593,8 761,1 784,0 834,3 833,2 Jami aholi 2728,5 4321,6 6277,9 8041,0 8305,1 9165,5 9441,9 Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 1959-2004 yillar, ya'ni 45 yil mobaynida shahar aholisi 3,5 marta ko'paygan bo'lsa, bu davrda shahar aholisining yosh tarkibida bolalar soni-3,1, mehnatga layoqatli yosh dagi aholi soni-3,7 va qariyalar soni esa 3,0 martani tash kil etgan. Ko'rيلayotgan davrning turli oraliqlarida shahar aholisining ko'payish sur'ati turlicha bo'lган. Jumladan, 1959-1970 yillarda shahar aholisi soni 58,4 foizga o'sgani holda, bu davrda shahar aholisining yosh tarkibida bolalar soni-78, mehnatga layoqatli yoshdagি aholi soni-44,7, kariyalar soni-67,9 foizga o'sgan. Shu o'rinda aytish mumkinki, aynan shu yillar shahar aholisi va uning yosh tarkibida bolalar o'zining tarixiy demografik rivojlanishining eng yuqori ko'rsatkichiga ega bo'lган. Undan keyingi aholi ro'yxati oraligida shahar umumiyo аholisi ko'payish sur'atining pasayishi va mehnatga layokatli yosh dagi aholining bosh qa yosh guruhlariga Karaganda tezroq o'sish jarayoni namoyon bo'lган. Chunonchi, 1970-1979 yillarda shahar aholisi soni 45,3 f oizga ko'paygani holda, bu davrda bolalar soni-36,8, mehnatga layokatli yosh dagi soni-54,9, kariyalar soni-28,9 f oizga o'sgan. Ko'rинib turibdiki, bu davrda shahar aholisining yosh tarkibida mehnatga layokatli yosh dagi aholi sonining demografik rivojlanishi kuchaygan. Mazkur holat Ikkinci jahon urushidan keyingi «demografik to'ldirish » davrida tug'ilgan aholining bu yosh guruxiga kirishi bilan 1 Jadval aholi ro'yxati va O'zbekiston Respublikasi davlat statistika ko'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan. 1979-1989 yillarda shahar aholisi soni-28,1, bolalar soni-31,6, mehnatga layoqatli yoshdagи aholi soni-25,7, qariyalar soni-28,1 f oizga o'sgan. Tahlillardan ko'rинib turganidek, oxirgi aholi ro'yxati oraligida shahar aholisining yosh tarkibida bolalar sonining o'sishi aholining boshqa yosh guruhlariga qaraganda ustunroq bo'lган. Mustakillik yillarida shahar aholisining yosh tarkibidagi o'zgarishlarni 1991-2000, 2000-2004 yillar uchun alohida davrlarga bo'lib tahlillar olib borqildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1991-2000 yillarda shahar aholisi soni

10,3 foizga o'sgani holda, bu davrda bolalar soni-4,7, mexnatga layokatli yosh dagi aholi soni-14,9, kariyalar soni-6,4 foizga ko'paygan. Oxirgi besh yillikda (2000-2004 yy.) shahar aholisining yosh tarkibi dinam ikasida jiddiy o'zgarish lar yuz bergen, ya'ni bolalar va kariyalar sonining kamayishi kuzatilgan. Agar 2000-2004 yillarda shahar aholisi soni-3,0, mexnatga layokatli yosh dagi aholisi soni 11,1 foizga o'sgan bo'lsa, bu davrda bolalar soni-9,2, kariyalar soni-0,2 foizga kamaygan. Shahar aholisining yosh tarkibida bolalar mutloq sonining kamayishi tug'ilish ko'rsatkichining keskin kiskarishi bilan bog'liq. Ayni vaqtida kariyalar sonining kamayishini ko'rilib yozgan yosh guruhining tug'ilishning intensiv past davrida tug'ilganligi va asosiy o'lim sabablaridan o'lganlar sonining ortishi bilan izohlash mumkin. Shunday kilib, shahar joylarida tug'ilish ko'rsatkichining keskin kamayishi natijasida bolalar son va salmoq jihatidan qisqarmoqda, aksincha mehnatga layokatli yoshdagi aholi soni ogishmay ortib bormokda. Bu hozirgi zamон demografik rivojlanish xususiyatlari shaxar aholisida «kuyidan» keksayish jarayoni boshlanganligidan dalolat bermokda (raem). Rasmdan ko'rinish turganidek, 1959-1991 yillarda shahar aholisining karish indeksi nisbatan tezroq kamayish jarayoni yakqol ko'zga tash lanadi. Chunonchi, shahar aholisining karish indeksi 1959 yilda 29,7 foizdan 1991 yilda 25,6 foizgacha yoki 4,1 punktgacha kamaygan. Mazkur holat o'z navbatida tug'ilishning yuqoriligi shahar aholisining yosh tarkibida bolalar sonining qariyalarga nisbatan yuqori darajada o'sganligi bilan bogliq. Agar shahar ahodisi tarkibida bolalar soni 1991 yilda 1959 yilga nisbatan 332,4 foizga ko'paygan bo'lsa, bu davrda kariyalar soni 285,9 foizga o'sgan. Ilmiy tahlillar ko'rsatish icha, shahar aholisida 1991 yildan boshlab karish indeksi muntazam ortib borgan. Bu ko'rsatkich 1991 yilda 25,6 foizdan 2004 yilda 28,6 foizgacha yoki 3,0 punktgacha ko'paygan. Ko'rilib yozgan davrda kariyalar sonining bolalar soniga nisbatan yuqori sur'atda o'sishi karish ipdeksining ortishiga olib kelgan. Chunonchi, kariyalar soni 2004 yilda 1991 yilga nisbatan 13,7 foizga o'sgan bo'lsa, bu davrda bolalar soni 0,5 foizga kamaygan. 32 30 28 26 24 22 .29.7 28.6 26,5 1979 1989 1991 2000 2004 1959 1970 Raem. O'zbekistonda shahar aholisining qarish indeksi dinamikasi 1 % hisobida Izoh: aholining karish

indeksi 20% dan bo'lsa past, 20-30% o'rtacha, 30% dan yuqori bo'lsa baland hisoblanadi. 1 Karish indeksi muallif tomonidan aholi ro'yxati va O'zbekiston Respublikasi statistika ko'mitasi ma'lumotlari asosida xisoblab chikilgan 4 Shunday kilib, yangi iqtisodiy sh aroitda O'zbekiston shahar joylarida aholining qarish jarayoni tezlash moqda. Mazkur holat o'z navbatida aholining keksayishiga ta'sir etuvchi demografik omillar bo'lmish tug'ilish ko'rsatkichining kamayishi va tug'ilganda kutilayotgan umr davomiyligining uzayishi bilan bevosita bogliqdir. Tug'ilish kariyalar sonining ko'payishida asosiy baza hisoblanadi, chunki tug'ilish daraj asining kamayishi natijasida aholining «kuyidan» keksayish jarayoni ro'y beradi. Yangi iqtisodiy munosabatlar sh aroitida respublikaning shahar joylarida ijtimoiy-iktisodiy va demografik omillar ta'sirida tug'ilish ko'rsatkichi keskin pasaydi. Chunonchi, 1991 yil shahar joylarida tugilayotgan bolalar soni 224,7 ming 1 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilga kelib bu ko'rsatkich 164,7 mingga 2 tushib qoldi yoki shu davr mobaynida u 26,7 foizga kamaygan. Tug'ilish jarayonidagi kamayish tug'ilishning umumiyo'koeffitsientida xam kuzatilib, 1991 yilda u 26,7 promilledan 2005 yilda 17,34 promillega, ya'ni 9,4 punktga kamaygan. Tug'ilish ko'rsatkichining kamayish tendensiyasini yanada yaqqolroq tasavvur kilish uchun tug'ilishning maxsus va yigindi koeffitsientlaridagi o'zgarishlar ham tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991 yil O'zbekiston shaharlarida tug'ilishning maxsus koeffitsienta 107,665 ni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 61,186 ga teng bo'lgan va shu yillar mobaynida u 46,48 ga, ya'ni 43,2 foizga kamaygan. Tug'ilishning xususiy koeffitsientining kamayishini tahlil kilib ko'rildi, 1991-2005 yillarda tug'ilishning yosh guruhi koeffitsienta 15-19 yoshli ayollarda 74,8, 20-24 yosh dagilarda-36,3, 25-29 yosh dagilarda-26,7, 30-34 yosh dagilarda-37,3, 35-39 yosh dagilarda-30,9, 40-44 yosh dagilarda-48,4, va 45-49 yosh lilarda 58,9 foizga kamayganligi ma'lum bo'ldi. 15-19 yoshdagi ayollarda tug'ilish ko'rsatkichining kamayishi ushbu davrda qizlarda nikoh yoshining ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lsa, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39 yosh guruhidagi ayollarda esa farzandlar tug'ilishi orasidagi davrni saqlashga olib borayotgan harakatlari natij asidir. 40 yoshdan yukori ayollarda tug'ilish

ko'rsatkichining kamayishi asosan oilada to'rtinchi, beshinchi, oltinchi va undan keyingi farzandlar tug'ilishining keskin kamayish i bilan boglik. O'zbekiston shaharlarida tug'ilish ko'rsatkichining kamayishini uni anik ifodalovchi tug'ilishning yigindi koeffitsienta dinamikasida xam kuzatish mumkin. 1991 yil shahar joylarida tug'ilish ning yigindi koeffitsienta 3,13 ni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 1.798 ga, ya'ni 42,9 foizga kamaygan. Taxlillar shuni ko'rsatadi, shahar joylari tug'ilishning yigindi koeffitsienta bo'yicha dunyoda tug'ilish darajasi past bo'lgan hududlar qatoridan o'rin olmokda. Shunday kilib, respublikaning shahar joylarida tug'ilish ko'rsatkichining kamayishi aholining yosh tarkibida 0-15 yoshdagi bolalar ulushining keskin kiskarishiga olib kelgan. 1991 yilda ularning ulushi 36,9 foizdan 2004 yilda 30,8 foizgacha kamaydi. Ayni paytda mexnatga layokatli yoshdagi aholining ulushi 53,7 foizdan 60,3 foizgacha oshdi. Bu esa, o'z navbatida shaxar aholisining yosh tarkibida kariyalar ulushining ortishini ko'rsatadi. Shuni xam unutmaslik kerakki, Ikkinchi jahon urushidan keyingi «to'ldirish» davrida tugilgan aholining bugungi kunda kariyalar guruxi qatoriga kirishi ham aholida keksayish jarayoni tarakkiy etishidan dalolat beradi.

### **Demografiya fanini o'rganadigan fanlararo yo'nalishlar.**

Tug'ilish jarayonining kamayishi aholining «kuyidan» keksayish ining demografik omili hisoblansa, tugilganda kutilayotgan umr davomiyligining uzayishi aholining «yukoridan» keksayish ining asosiy omili hisoblanadi. So'nggi yillarda shahar aholisining o'rtacha umr davomiyligi uzlucksiz ortib bormokda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991 yilda shaxar aholisining o'rtacha umr davomiyligi 69,3 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda u 71,2 yoshga yetgan yoki 1,8 yoshga oshgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston shaharlarida erkak va ayollarning yashashidagi fark 1990 yildagi 8,2 yoshdan 2005 yilda 6,4 yoshga kiskargan. Respublikaning shahar joylarida umr ko'rish davomiyligining o'sishi o'lim ko'rsatkichlarining pasayishi bilan izoxlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1995 yil shahar joylarida o'lganlar soni 64, V mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 62,64 mingga yoki 2,7 foizga kamaygan. Bunga boglik o'limning umumiyo koeffitsienta 7,35 promilledan 6,6b

promillega kamaygan. O'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishiga chaqaloqlar o'limining kamayishi ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. 1991 yil shahar joylarida chaqaloklar o'limi 32,8 promilleni tashkil etib, 2005 yilga kadar kamayib, bu yilda u 10,7 promillega teng bo'lган yoki 2005 yilda 1991 yilga nisbatan 67,4 foizga kamaygan. Yukoridagilardan kelib chikib, O'zbekiston shahar aholisining demografik vaziyatiga baho beradigan bo'lsak, tug'ilish ko'rsatkichining kamayishi aholining «kuyidan» keksayishiga sabab bo'lmokda. Shu bilan birga tugilganda kutilayotgan umr davomiyligining o'sib borayotganligi aholining «yuqoridan» keksayishiga olib kelmokda. Binobarin, aytish mumkinki, agar demografik jarayonlar shu tarzda davom etadigan bo'lsa, O'zbekiston shahar joylarida aholining keksayish jarayoni uzlusiz tarakkiy etishidan dalolat beradi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida kechayotgan demografik jarayonlar va ularning urbanizatsiyalashuv darajasi, shahar va kishlok aholisi dinamikasi, shaharlarning o'sish sur'atlariga ta'siri dolzarb masalalardan biri bo'lib, ko'plab mutaxassislarning e'tiborini o'ziga tortmokda. Ma'lumki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining mazkur masalalar bilan maxsus shug'ullanuvchi aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) mavjud bo'lib, ushbu jamgarma tomonidan dunyoning ko'plab mamlakatlarida aholi bilan boglik masalalar o'rganilib kelinmokda. Mazkur tashkilotning 2005 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 47% i shaharlarda istikomat qilayotgan bo'lib, mutaxassislarning taxminlariga Karaganda, 2030 yilga kelib bu ko'rsatkich 60% ga yetishi mumkin. Lekin, urbanizatsiyalashuv darajasi dunyo miqyosida bir xil emas, ya'ni bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda 76% bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda 41% ni tashkil etadi. Urbanizatsiya darajasining yukoriligi shaharlar soni va ularda istikomat kiluvchi aholining ko'p-ozligi bilan belgilanib, ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, fan, san'at kabi sohalardagi ahvol va o'zgarishlarni ifodalaydi. Urbanizatsiya jarayonida shaharlar soni, ayniqsa, yirik shaharlar, shu jumladan, aholisi milliondan oshgan shaharlar soni tez ko'paya boradi. Shahar aglomeratsiyalari, megapolislar, aholi manzillari, ayniksa, shaharlar ko'payishi aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chib kelish jarayonini kuchaytiradi. Bu

urbanizatsiyaga xos bo‘lgan xususiyatdir. Xalqaro miqyosda qabul kilingan mezonga ko‘ra, urbanizatsiya darajasi yuqori mamlakatlar qatoriga aholisi 100 mingdan ortiq bo‘lgan shaharlarda aholining uchdan bir kismi yashaydigan mamlakatlar kiradi. Yukoridagi fikrlarga ko‘ra, O‘rta Osiyo tarkibiga kiruvchi davlatlarning birontasi, shu jumladan, O‘zbekiston ham urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kira olmaydi. O‘zbekistonda aholisi 100 mingdan ortiq bo‘lgan 17 ta shahar mavjud bo‘lib, ularda yashayotgan aholi soni salkam 5 millionga yetadi, bu esa respublika jami aholisining 20 foizga yaqinini tashkil etadi, xolos. Shu jixatdan urbanizatsiya jarayonlari hozirgi kunda nihoyatda muxim masala bo‘lib, bu masalani o‘rganishda, avvalambor, mamlakatimizdagい mavjud demografik vaziyatga to‘xtalib o‘tish lozim. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistonda aholining zichligi ayniksa yukori bo‘lib, 1 kvadrat kilometrga 51,4 kishi to‘gri keladi, holbuki, bu rakam Qozogistonda - 6,1, Qirg‘izistonda - 22,7, Turkmanistonda - 9,4 ni tashkil etadi. Respublikamizda har bir kishiga 0,17 hektar ekin maydoni to‘g‘ri kelsa, Qozogistonda - 1,54, Qirg‘izistonda - 0,26, Ukrainada - 0,59, Rossiyada 0,67 hektar ekin maydoni to‘gri keladi. Barcha aholining yarmidan ko‘progi qishloq joylarida yashayotganligini hisobga olsak, aytish mumkinki, bizning qishloqlarimizda insoniy zahiralarning nisbiy ortiqligi emas, balki mutlaq ortiqligi yaqqol ko‘zga tashlanadi 1. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi ko‘payishining eng yuqori sur’atlari so‘nggi 20-30 yilga to‘g‘ri kelgan. Mamlakatimiz aholisi 1970 yildan 2000 yilgacha kariyib 13 millionga ortdi. Ishlab chikarishni hududiy tashkil etish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbolini belgilashda shaharlar, ayniksa, yirik shaharlarning axamiyati kattadir. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlar, asosan, respublikaning sobik Ittifoq davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish i bilan bog‘liq. O‘zbekistonda 1970 yili 43 ta shahar bo‘lib, ularning soni 1986 yilga kelganda 123 taga yetdi. O‘zbekistonda shahar aholisi ulushining eng yuqori ko‘rsatkichi 1979 yilga to‘gri kelib, 41,4% ni tashkil etgan. Keyingi yillarda urbanizatsiya jarayoni pasayib borib, 2005 yilga kelib u shahar aholisi va shaharlar sonining tez o‘sib borishi hamda katta shaharlar

rolining ortishi bilan ifodalanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 120 ta shahar va 13 ta shahar tipidagi poselka bo‘lib, 1926 yilga nisbatan respublikadagi shaharlar soni 5 martadan ko‘prok ortgan. Alovida ta’kidlash lozimki, 1972 yilda shahar aholisiga ko‘yiladigan minimal senz 10 mingdan 7 mingga tushirilishi xam ўзарлар sonining birdan ko‘payishiga olib keldi. Agar 1926 yildan 1972 iilgacha O‘zbekistonda 18 ta shaxar paydo bo‘lgan bo‘lsa, 1972 yildan boshlab 1991 yilgacha respublikada 79 ta yangi shahar paydo bo‘ldi. Demografik jarayonlar, ya’ni aholi sonining o‘zgarishi, uning sabablari, o‘ziga xos xusiyatlari, ko‘payish yoki kamayish sur’atlari, tug‘ilish va o‘lim darajasi, nikox va ajralish, avlodlar almashuvi, o‘rtacha umr ko‘rish, jinsiy va yosh tarkibi kabi o‘ta muhim masalalar j miyat taraqqiyoti bilan chambarchas boglik. Ular, bir tomonidan, jamiyat taraqqiyot daraj asiga, undagi iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlarga boglik bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, mamlakat taraqkiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Demografik jarayonlar u yoki bu davlatda ro‘y beradigan turli o‘zgarishlarni ma’lum jihatdan osonlashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Shunga ko‘ra, bu jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli-tuman masalalarga befarq qarab bo‘lmaydi. O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyati aholisining tez sur’atlar bilan ko‘payishida ko‘rinadi. Bu borada u qo‘shti Tojikiston bilan birgalikda MDH tarkibiga kiruvchi davlatlar orasida yetakchi o‘rinni egallab turibdi. Mamlakatimiz aholisi yiliga o‘rta hisobda 350-400 ming kishiga ko‘payib bormokda. O‘zbekistonda aholining tabiiy o‘sishi har ming kishi hisobida olganda, keyingi yillarda asta sekin pasayib bormokda. Masalan, 1989 yili tabiiy o‘sish 32,1 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib bu ko‘rsatkich 16,0 %ga tushib qoldi. Yuqorida keltirilgan jadval tahlilidan aholining tabiiy o‘sishi qishloqlarda shaharlarga nisbatan aycha yuqori ekanligini hamda kishlok aholisining ulushi ortib borayotganligini ko‘rish mumkin. Mamlakatda aholi sonining tez sur’atlar bilan ko‘payishi tug‘ilishning ko‘pligi va o‘lim darajasining asta-sekin kamayib borishi asosida ro‘y bermokda. Tug‘ilish va aholi tabiiy o‘sishining yukoriligi, avvalo, aholi orasida o‘zbeklar hamda boshqa mahalliy millat vakillari ko‘pchilikni tashkil etishi bilan ifodalanadi. Bu, o‘z navbatida, ana shu millatga xos bo‘lgan serfarzandlik an’analari, aholining katta

qismi qishloqlarda istikomat qilishi, ayollar orasida ishlab chikarishda band bo‘lganlar sochi kamligi kabi sabablar bilan boglik. Respublika jami aholisida shahar aholisi salmogining ko‘paya borishi 1970- 1990 yillarga to‘g‘ri keladi. Ana shu davr ichida shahar aholisi salmog‘ining ortishi ko‘p hollarda sun‘iy ravishda, ya’ni shahar aholisi salmog‘ini ko‘tarish maqsadida qator qishloq manzillariga asossiz tarzda, ilmiy jihatdan isbotlanmagan holda shahar maqomi berilishi tufayli ro‘y berdi. Respublika mustaqillikka erishgach, bunday usulga chek qo‘yildi. Natijada, shahar aholisi orasida tug‘ilish kishloqdagiga nisbatan kam bo‘lishi tufayli shahar aholisining salmog‘i kamaya bordi. Masalan, 1991 yili shahar aholisining salmog‘i 40,3 foiz bo‘lgani holda, 2005 yilga kelib, bu rakam 36,3 foizga tushib qoldi. Mutaxassislarning fikricha, respublika aholisining yuhori sur’atlar bilan o‘sib borishi kelajakda ham, garchi biroz sust bulsa-da, davom etadi. Lekin, aholi bilan bog‘lik bo‘lgan sohalarda ayrim muammolar xam mavjud. Bu asosan, bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi o‘lim darajasining keyingi davrda ancha kamayganligiga karamay, hamon ancha yukori darajada turganligidir. Masalan, 1980 yil ma’lumotlariga ko‘ra, bir yoshgacha bolalar o‘limi 47 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 16,2 %ga tushdi, birok bu xam yukori ko‘rsatkichdir. Ushbu ko‘rsatkich jahonning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, Yaponiyada 218%, Shvesiyada 3,1%ni tashkil etadi. MDH davlatlarida shaharlarning soniga ko‘ra, quyidagicha guruhlashtirish kabil kilingan: kichik shaharlar - 50 mingtacha, o‘rtacha shaharlar - 50-100 minggacha, katta shaharlar - 100 mingdan ortik aholiga ega bo‘lishlari kerak. Shaharlar mamlakatning ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy taraqqiyotida muxim o‘ringa ega. Mamlakatning asosiy ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va demografik salohiyati aynan shaxarlarda mujassamlashgan. 2005 yilda O‘zbekistonda jami aholining 36,3% i istiqomat qiladigan 120 ta shahar va 113 ta shahar tipidagi posyolka mavjud edi. Mustakillik yillarida shaharlar soni deyarli o‘zgarmadi. Jumladan, 1991 yilda respublikada 227 ta shahar va shaharchalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu 6 taga ko‘paydi. Urbanizatsiya sur’atlarining bunday pastligini sababi, bizning fikrimizcha, respublikaning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘tish

davrida kishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan e’tibor bilan ifodalanadi. Shaharlarda aholi sonining o‘sishi past darajada bo‘lishiga migratsiya bilan bir qatorda ma’lum ma’noda tabiiy o‘sish koeffitsientining pasayishi xam ta’sir ko‘rsatdi, chunki tabiiy o‘sish, ayniksa, shaxarlarda past darajada saqlanib qolmokda. Masalan, 2001 yilda tabiiy o‘sish Buxoroda - 8 %, Samarkandsa - 5,7 %, Jizzaxda - 5,3 %, Fargonada - 6,8 %, Toshkentda - 5 %, Chirchikda - 2,1 % ni tashkil etdi. Tabiiy o‘sish koeffitsientining bu darajada bo‘lishi tug‘ilish darajasining pasayib borayotganligi bilan ifodalanadi. Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, respublikada urbanizatsiya jarayoni haligacha zaif. Buning asosiy sababi - respublikada qishloq aholisi salmog‘ining yuqoriligidir. Bu hol O‘zbekistonning o‘ziga xos demografik xususiyati bilan bevosita bog‘liq. Ma’lumki, O‘zbekiston qishlok aholisi orasida tug‘ilish va umuman aholining tabiiy ko‘payishi shaharlardagiga nisbatan ancha yuqori. Xalqimizga azal-azaldan xos bo‘lgan bu xususiyaga an’ana sifatida hali uzok vaqt saqlanib qolishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Tarixiy demografiya fanining maqsadi nimada?
2. Xususiy bandlik agentliklari qanday maqsadda tuzilgan?
3. Aholi bandligi to‘g‘risida Farmon qanday maqsadlarni ko‘zlab qa’bul qilindi?
4. Ichki migratsiya O‘zbekiston Respublikasining qaysi hududlarin qamrab olmoqda?
5. Aholini ro‘yxatga olish qanday maqsadda amalga oshiriladi?
6. Aholi migratsiya nima?
7. Aholi yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha qanday amaliy ishlar amalga oshirilmoqda?
8. Aholi bandligini ta’minalash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

### **4-MAVZU: O‘zbekistonda mustaqillik yillarida demografik jarayonlar.**

#### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarida mehnat sharoitlari va demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar.

## 2. Aholi o'sishi va joylashishi.

**Tayanch so'zlar:** *Mustaqillik, demografik o'zgarishlar, aholi mehnat munosabatlari, mehnat resurslari, o'sish tendensiyalari, viloyatlar bo'yicha o'sish, daromadlar.*

### **Mustaqillik yillarda mehnat sharoitlari va demografik jarayonlardagi o'zgarishlar**

Aholi va mexnat rusurslarini takror ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston noyob mintaqalardan biri hisoblaiadi. Demografik, ya'ni aholi o'sishining o'ziga xos mosligi mamlakatimizning regional xususiyati bo'lib, aholini va mehnat resurslarining tez vaqtda o'sayotganini ko'rsatadi. Agar, O'zbekistonda aholini o'sishi mustaqillik davrini kuzatsak, u o'sib boradi. Buni kuyidagi raqamlarda ko'rish mumkin: Yillar Aholi soni 1990-20322; 1995-22562; 2000-24654; 2004-25857; 2005-26100. XIX asrning oxirida O'zbekiston hududida 4 mingga yaqin aholi yashagan. Demografik vaziyatga urushlar ta'sir etgan. 60 - yillardan boshlab aholi soni o'sib aholining yosh jinsiy tarkibini o'rganish aholi geografiyasi fanining asosiy vazifasi sifatida qayd etilgan. Ayniqsa demografik tadqiqotlarda aholining jinsiy yosh tarkibini demografik jarayonlar shakllanish ining asosiy omili sifatida o'rganishga katta e'tibor ko'rsatilgan. O'zbekistonda ham ana shunday tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Qoraxoiov M.K. O'rta Osiyoning demografik rivojlanishini o'rganar ekan, 1897 va 1970 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari asosida aholining jinsiy tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlab chikkan 1.Mullajonov I.R. o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda aholini takror barpo bo'lishi va demografik rivojlanish bo'yicha olib borgan ilmiy tadkiqotida aholi yosh jinsiy tarkibini asosiy omillar tarkibida kayd etgan 2.Burieva M.R. O'zbekistonda oilaning demografik xususiyatlarini o'rganishda aholi jinsiy-yosh tarkibini oila tashkil topishini asosiy omili sifatida tahlil etgan. Ma'lumki, aholining asosiy kismi 18-50 yoshlarida turmush qurib, farzand ko'rishadi. Ana shuning uchun xam reproduktiv yoshdag'i aholining jinsiy mutanosibligi muhimdir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab

O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni juda o‘zgardi. Avvalambor ularning ma’lumotlilik darajasi oshib bordi, nikox yoshi ko‘tarilib, farzandlar tug‘ish birmuncha kamaydi. Ayniksa davlatning oilaga, oilalar salomatligiga berayotgan e’tibor yana xam kuchaydi. O‘zbekistonning shahar va qishloq hududlarida, viloyatlarida 1959-1989 yillar va mustakillik davrida aholining jinsiy mutanosibligi ijobiy o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Aholi yosh tarkibi bo‘yicha uch guro‘hga - bolalar, mehnat yoshidagi aholi va qariyalarga ajratiladi. Har uchala gurux o‘zining ijtimoiy-demografik faoliyati bo‘yicha o‘zaro fark kiladi. O‘zbekistonda bolalar (0-15 yosh) guruhi 1959 yilda jami aholining 38,9 % ini tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 36,7 % ga teng bo‘ldi. Shahar aholisining tarkibida esa bolalar guruxi 31,6 % ni tashkil etdi. Mexnat yoshidagi aholi (16-54 yosh ayollarda; 16-59 erkaklarda) respublika bo‘yicha jami aholining 56,2 % ini, shahar aholisi tarkibida 57,7 % ini, qishloq aholisi tarkibida 53,1 % ini tashkil etdi. Qariyalar salmog‘i shahar aholisi tarkibida birmuncha yukori bo‘lib, 10,7 % ga, kishloq aholisida 7,3 % ga tengdir. Respublikaning mustakillik davrida shahar aholisining yosh tarkibida keskin o‘zgarish kuzatiladi. Aholi tarkibida bolalar salmog‘i kamayib, mexnat yoshidagi aholi va kariyalar salmog‘i ko‘tarildi. Shahar aholisining yosh tarkibida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar tug‘ilish jarayoni bilan bog‘liq. Aholi yosh-jinsiy tarkibini o‘rganish aholi ro‘yxatlaridir. Aholi ro‘yxatlarida aholining jinsiy-yosh tarkibi va uning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy faoliyati haqida bat afsil ma’lumot to‘planadi. Aholi ro‘yxatlari ilmiy asoslangan dasturlar orqali juda keng mavzularni qamrab olgan xolda, 5-10 yillarda o‘tkazilib turiladi. Hozirgi davrda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlari shu qadar keng doirada to‘planganki, ular asosida aholining ijtimoiy-demografik guruhlarini faqat mikdorini emas, balki ularning sifati, ya’ni ma’lumoti, oilaviy holati, ijtimoiy ahvoli va boshqa xususiyatlarini ham o‘rganish mumkin. Olingan ma’lumotlar EHMLar yordamida har bir yo‘nalishlar bo‘yicha aloxida o‘rganilib, statistik yilnomalar tayyorlab boriladi. Dunyodagi barcha davlatlar qatori O‘zbekistonda xam aholining jinsiy-yosh tarkibi va demografik jarayonlarni o‘rganish o‘z tarixiga va xususiyatiga egadir. O‘zbekistonda demografik tarkib va jarayonlarni

o‘rganishda o‘lka hududida o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlari ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston hududida ham hozirgi davrga qadar qator aholi ro‘yxatlari o‘tkazilgan. Ilmiy manbalarda ko‘rsatilishicha, Respublikada dastlabki aholi ro‘yxati 1897 yilda o‘tkazilgan bo‘lib, u hozirgi O‘zbekiston chegarasidagi barcha hududlarni qamrab olmagan. Shunday bo‘lsada, ushbu ro‘yxat ma’lumotlari O‘zbekistonda XIX asr oxirida istiqomat etgan oilalar, aholining soni, jinsiy-yosh va etnik tarkibi, tug‘ilish, o‘lim kabi demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. O‘zbenistonda keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989 yillarda aholi ro‘yxatlari o‘tnazildi. Ushbu ro‘yxatlarda O‘zbekiston shahar aholisining jinsiy-yosh tarkibi xaqida to‘la ma’lumotlar to‘plangan. Demografik tarnib va jarayonlarni o‘rganishda navbatdagi manba sotsiologik demografiya tadqiqotlardir. Demografik jarayonlarni sotsiologik tadqiqotlar yordamida o‘rganish sotsial demografiya tadqiqotlar deyiladi". Bunday tadqiqotlar o‘tnazish usuli bilan asosan demografik jarayonlarni avlodlar bo‘yicha hususiyatlari, omillari va muammolarini atroflicha o‘rganish mumiin. Sotsial-demografik tadqiqotlar, ayniisa muntazam aholi ro‘yxati o‘tnazilmagan hududlar demografik holatini o‘rganishda katta yordam beradi. Buning uchun demografik jarayonlarni o‘rganishga oid mutaxassislar tomonidan maxsus so‘rovnomaga asosan suhbatlar olib boriladi va ma’lumotlar to‘planadi. Sotsial demografik tadkiqotlar respubliianing shahar va qishloq hududlari bo‘yicha alohida o‘tnaziladi. O‘zbeiiistonda shahar hududlarida bunday tadqiqotlar XX asrning birinchi yarmidan boshlab o‘tkazilib kelinmokda. Ularda shahar aholisining jinsi, turli yosh guruhlari (bolalar, o‘smlar, yoshlar, kariyalar, mehnat yoshidagi aholi, reproduktiv yosh) ga oid kimmatlari ma’lumotlar mavjuddir. Qayd etilgan manbalar O‘zbekiston hududlarining demografik tariibi va holatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aniqlashda, muammolarini belgilab, istiqbolini ishlab chiqishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Aholi va mehnat rusurslarini takror ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston noyob mintaqalardan biri hisoblanadi. Demografik, ya’ni aholi o‘sishining o‘ziga xoc mosligi mamlaiatimizning regional xususiyati bo‘lib, aholini va mehnat resurslarining tez vaqtda o‘sayotganini ko‘rsatadi. Agar,

O‘zbekistonda aholini o‘sishi mustaqil davrini kuzatsab, u o‘sib boradi. Buni quyidagi raqamlarda ko‘rish mumnin: Yillar aholi soni \* 1990 20322, 1995 22562, 2000 24654, 2004 25857, 2005 26100. XIX asrning oxirida O‘zbeniston hududida 4 mingga yaqin aholi yashagan. Demografik vaziyatga urushlar ta’sir etgan. 60 - yillardan boshlab aholi soni o‘sib. 1960 - 1970 y. - 15,3 % usadi. 70-80 yillarda aholining o‘sishi 30,4 % tashkil etadi. Bunday yo‘nalish o‘tgan 10 yillikda ham saqlanadi va bu davrda aholining umumiy o‘sishi 29 % ga teng bo‘ldi. 2005 yilda O‘zbekiston aholisining umumiy soni 26,1 mln. kishini tashkil etdi. Bulardan 9,5 mln. kishi shaharda, 16,6 mln. kishi qishloqlarda yashaydi. O‘zbekiston aholisining ritmik o‘sishi quyidagi omillar bilan bogliq. Bu - tug‘ilishni yuqoriligi (asosan qishloq joylarida), o‘limning nisbatan pasayganligi, nikohning ko‘pligi, ajralishning nisbatan kamligi, respublikalar aro migratsiya va boshqa omillar. Aholining tabiiy o‘sishi ko‘proq qishloq aholisiga tug‘ri keladi. Mamlakatda asosiy aholi o‘zbeklar bo‘lgani uchun aholining tabiiy o‘sishiga migratsiya va emigratsiya uncha ta’sir etmaydi, chunki O‘zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ketadiganlar soni katta emas. Demografik vaziyatga ta’sir etuvchi omillardan yana biri - aholi orasidagi o‘lim darajasi. O‘zbekistonda o‘limning umumiy koeffitsienti har ming aholi hisobida 5 kishi. Bu MDH mamlakatlari orasida eng past ko‘rsatkich. Hozir bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi har ming kishiga nisbatan 16,2 teng. Tug‘ilish va o‘lim o‘rtasidagi tafovut aholining tabiiy ko‘payish darajasini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich hozir 15,5 promillegaga teng (har ming aholiga xisoblaganda). Albatta, aholi o‘sishiga oila munosabatlari ham ta’sir ko‘rsatadi. 2005-yilda O‘zbekistonda 156,4 ming nikoh qayd etilgan va shu bilan birga 17,5 ming ajralish ro‘y berdi. Hozirda 8,9 nikohga bir ajralish to‘g‘ri kelmoqda. Bizning mentalitetimizda bu oilaviy fojeadir. Turmush darajasini kutarish demografik siyosatsiz bo‘lmaydi. Bu siyosat respublikada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi, sog‘lom avlodni yuzaga keltiradi. Demografik siyosatni amalga oshirish, birinchi navbatda, aholi salomatligini yaxshilash, oilani qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muxofaza qilish, ikkinchidan, respublikada mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, aholini ish bilan ta’minlashni

takomillash tirish, ijtimoiy himoyalash dasturlarini qabul qilishdir. Aholi tarkibiga kelsak, mamlakatda 14 yoshgacha bo‘lganlar soni o‘sib bormoqda, ular aholining 40,8% ni tashkil qiladi, 28,3% yoshlar 15-29 yoshlardan iborat. Bolalar, o‘smirlar va yoshlarning salmog‘i 70%, ya’ni respublika aholisining 2/3 qismini tashkil etadi. Aholi tarkibini turar joylarga karab o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. 2005-yil O‘zbekistonda 37% dan ko‘proq aholi shaharlarda istaqomat qilgan. Bu ko‘rsatkich Toshkent viloyatida birmuncha yuqori. Demak, mahalliy aholi urbanizatsiyaga unchalik moil emas. Aholining asosiy qismi hali ham qishloqda yashab kelmoqda. Ma’lumki aholining ijtimoiy tabaqasi va ish bilan ta’minalash o‘rtasida alokadorlik bor. 2000 yil aholini 80% ishchi va xizmatchilar edi. Ularning soni yil sayin oshib bormokda. Qishlok xo‘jaligida band bo‘lganlar soni, aksincha kamayib bordi. Oxirgi yillarda aholining ta’lim bo‘yicha tarkibi ham takomillashmokda. Ishchi va xizmatchilarni umumta’lim darajasi o‘smokda. Hozir band aholinig har 4 tasidan biri oliy va o‘rta maxsus ma’lumotga ega. O‘zbekistonda mehnat resurslariga 16 dan 59 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 dan 54 yosh gacha bo‘lgan ayollar kiritiladi. Mehnat resurslaridan foydalanish holatini taxlil qilish uchun aholini 2 guruhga bo‘lish lozim. 1- guruh - iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi. Ularga quyidagilar kiradi: - maktab yoshidagilar, o‘quvchilar va talabalar; 27 - nafaqaxo‘rlar; - uy ro‘zg‘or ishlari, bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullangan shaxslar; - ishlashni xohlamaydiganlar; - ishslash zaruriyati bo‘lmaganlar. 2 - guruh - Iqtisodiy faol aholi bo‘lib, unga mehnatga layoqatli va o‘z kuchini taklif qiluvchilar kiradi. Mamlakatdagi iqtisodiy faol aholi darajasi quyidagicha hisoblanadi: Bu yerda FA - iqtisodiy faol aholi; J - iqtisodiy faol aholi darajasi; A - barcha aholi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda dolzarb muammolardan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodni, ya’ni mehnat resurslarini ish bilan ta’minalashdir. Respublika qishlok aholisini 60%i qishloq xo‘jaligida band, lekin qishloqda mehnatni tashkil etish doirasi tor. Qishloq xo‘jaligida, mehnat resurslarining ko‘pligini e’tiborga olgan holda boshqa tarmoqlarni ham rivoj lantirish kerak. Masalan, katta ishlab chiqarishni filiallarini ochish, kichik sexlar, mayda (kichik) korxonalar yoki nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini

kengaytirish zarur. Umuman olganda, mehnat resurslaridan to‘lik foydalanish uchun O‘zbekistonda ko‘prok qurilish, kichik va qo‘shma korxonalar doirasini kengaytirish, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalarni rivojlantirish, dam olish zonalarni tashkil etish kabi muammolarni hal etish talab etiladi.

### **Aholi o‘sishi va joylashishi**

Xalqaro YuNESKO tashkilotining qarori bilan 1983 yilning sentabr oyida Toshkent shahrining 2000 yillik yubileyi nishonlandi. 1989 yilda esa Birlashgan Millatlar tashkilotining qarori bilan Toshkentga «Tinchlik elchisi» degan faxriy unvon berildi. Mustakil davlatlar hamdustligida Toshkent Moskva, Sankt-Peterburg, Kievdan keyin to‘rtinchi katta shahar hisoblanadi. Hozirgi kunda bu yerda yuzdan ziyod millat va elatlarning vakillari yashab kelmoqda. XX asrlik davr ichida Toshkent oddiy bir manzilgohdan yuksak sanoatlashgan poytaxt shaharga aylandi. Asrlar davomida shahar ko‘p vokealarni boshidan kechirdi. Uida yuksalish va inqiroz davrlari ko‘p bo‘lib, necha marotaba vayron bo‘lib kaytadan tiklandi. Qadimiy o‘rnidan bir necha bor siljib, nomi ham o‘zgarib turdi. Choch, Shosh, Toshkent, Binkat nomlari bilan atalgan ma’umotlar yozma manbalarda xilma-xil tarzda uchraydi. Aniqroq ma’lumotlar esa miloddan avvalgi II asr-milodiy V asrlarga mansub Xitoy manbalarida uchraydi. Mil.av. III asrdan to milodimizning III asrigacha Choch viloyatida tashkil topgan “Qang” davlati haqida yozma ma’lumotlar saqlangan. 4 Xitoy tarixchisi Sima syan, Ban Gu va boshqa Xitoy mualliflari asarlarida uchraydi. Qanguylarning xo‘jaligi, madaniyatni va turmush tarzi arxeologlarning Kovunchi madaniyatiga oid yodgorliklarida o‘rganilgan. Bu davlat mil.av. II asrda buyuk davlat bo‘lgan. Unda ulkan istehkomlar, qal’a, shahar ibodatxonalari, savdo va hunarmandchilik markazlari bo‘lgan. Bu davrda Toshkent Buyuk ipak yo‘lida joylashganligi uchun Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol o‘ynagan. VI asrda Toshkentni turklar istilo etganlar. Ular shahar atrofini mudofaa devori bilan o‘rab oladilar. VIII asrda arablar bosib oladilar. Arablarda «ch» harfi bo‘limganligi sababli arabiy asarlarda «Shosh» deb yozilgan. IX-X asrlarda Toshkent Somoniylar davlati tarkibida, X asr oxirlaridan XIII asr boshigacha

Qoraxoniylar va Qoraxitoylar davlatlari tasarrufida bo‘lgan. IX asrdan boshlab Toshkent haqidagi ma’lumotlar Al-Xorazmiy, tarixchi At-Tabariy va X asrda yashagan arab geografii Istaxriy asarlarida uchraydi. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Choch o‘zining kamon va o‘q-yoylari bilan mashhur bo‘lganligi yoziladi. Birinchi marotaba Toshkent atamasi XI asrda Abu Rayxon Beruniy va Maxmud Qoshg‘ariy asarlarida tilga olinadi. Beruniy o‘zining «Hindiston» nomli asarida Toshkent nomining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: «Tosh so‘zi asli turkcha ism bo‘lib, Shosh ko‘rinishini olgan. Toshkand-toshli qishloq demakdir». Toshkent vohasida shahar madaniyatining shakllanib, shaharlarning qad ko‘tarishi shu o‘lkada yashagan qadimgi chorvador va dexkodlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo‘lib, bu jarayon shubhasiz o‘lkaning o‘zlashtirilib obod etilishi, unda chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarining tashkil topishi hamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivoj lanishi tarixi bilan uzviy bog‘likdir. Shahar kizg‘in savdo-sotiq markazi bo‘lganligi haqida Toshkent territoriyasidan topilgan tangalar dalolat beradi. 1214-15 yilda Muxammad Xorazmshox Toshkentni bosib oladi. 1220 yilda esa mo‘g‘ullar unchalik qarshiliksiz bosib oladilar. XIV - XV asr boshlarida Toshkent Temur va Temuriylar davlati tarkibiga kiradi. Temuriylar o‘rtasida boshlangan o‘zaro urushlar natijasida 1485 yilda Toshkent Mo‘g‘iliston xoni Yunusxon ko‘liga o‘tadi va uning qarorgohiga aylanadi. Yunusxon vafotidan so‘ng o‘g‘li Sulton Maxmudxon bosh karadi. 1503 yilda esa Toshkentni Shayboniyhon egallaydi. Shaharni boshqarishni amakilari Suyunchixujahon va Kuchkinchixonga beradi. Shayboniylar sulolasи xukmronligi davrida Toshkent hunarmandchilik, savdo-sotik va madaniy markazlardan biriga aylanadi. Katta kurilish ishlari olib borilib, memorchilik obidalari qad ko‘taradi. Baraqxon va Ko‘kaldosh madrasalari shu davrda kurilgan. 1576 yilda Tosh kent Shayboniylardan bo‘lgan Abdullaxon II tasarrufiga o‘tadi. Uning vafotidan so‘ng esa kozok xoni Tavakkal (1599yilda) uni bosib oladi. 1613 yilda Ashtarxoni avlodidan bo‘lgan Imomqulixon qozoqlarga qarshi kurashib, Tosh kentni qo‘lga kiritadi va o‘z o‘g‘li Iskandarni noib etib tayinlaydi. Ko‘p o‘tmay shahar aholisi isyon ko‘tarib Iskandarni o‘ldiradilar.

G‘azabga kelgan Imomqulixon Toshkent aholisiga qirg‘in keltiradi. XVIII asr birinchi choragida Toshkent yana kozoq xonlariga tobe bo‘ladi. XVII-XVIII asrlarda Toshkentda xunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanadi. Natijada, Rossiya bilan ham iktisodiy va elchilik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi. Toshkent savdogarlari Sibir shaharlariga borib savdogarchilik qila boshlaydilar. 1738 yilda Orenburgdan Toshkentga birinchi rus savdo karvoni keldi. XVIII asr o‘rtalarida garchi shahar ko‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan bo‘lsada, u to‘rt qismdan iborat bo‘lgan: Sebzor, Ko‘kcha, Beshyog‘och, Shayhontoxur. Har birini mustaqil hokim bosh qargan. Bu davr tarixda «Chor hokim» nomi bilan mash hur bo‘lgan. Shahar devor bilan o‘ralgan bo‘lib, uning uzunligi 14 km. bo‘lgan. Balandligi 8 metrlik devor ustida ikkita suvoriy bemalol yonma-yon yurgan. Shahar tash qi devorining 12 daobozasi bo‘lib ular quydagicha nomlangan: Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sagbon, Chig‘atoy, Ko‘kcha, Samarkand, Kamolon, Beshyog‘och, Qo‘ymas, Qo‘qon va Qash g‘ar darbozalari. Darvozalar tunda yopilgan va tonggacha hech kim kiritilmagan<sup>1</sup>. 1784 yilda Shayhontohur dahasi hokimi Yunusxo‘ja qolgan uch daha hokimligini o‘z tasarrufiga olib, Toshkentda feodal tarqoqlikka chek qo‘ydi va mustakil Toshkent davlatini tash kil etadi. Tosh kent aholisiga tinchlik bermayotgan ko‘chmanchi kozoqlarni bo‘ysindirishga muvaffak bo‘ladi. XIX asr boshlarida Toshkentni Qo‘kon xonligi bosib oldi. “XIX asr o‘rtalarida Toshkent O‘rta Osiyoning Rossiya bilan savdo-sotik kiluvchi eng yirik markaziga aylandi. Rossiya bilan butun O‘rta Osiyo shaharlari olib borayotgan savdo-sotikning 40% i birgina Toshkentga to‘g‘ri keladi. Har yili Orenburg va Semipalatinsk shaharlariga Toshkentdan paxta, paxta mahsulotlari, ipak, guruch, kuritilgan mevalar, jun va boshqa mahsulotlar ortilgan tuya karvonlari jo‘natilardi. U yerdan esa Toshkentga ip gazlamalar, temir, metal buyumlar, mo‘yna va boshqalar keltirilardi. 1865 yilda Toshkent Rossiya tomonidan bosib olindi. 1867 yilda markazi Toshkent shahri bo‘lgan Turkiston general gubernatorligi tashkil etildi. Chor Rossiyasi Turkiston o‘lkasida mustamlaka siyosatini mustahkamlash, uning doimiy xo‘jayini bo‘lish maqsadida rus millatiga mansub aholini O‘rta Osiyoga ko‘chirdi. Turkistonga ko‘chib kelgan rusiyzabon aholining mutloq ko‘pchiligi o‘lkada yashab kolishgan.

Rossiyaning asosiy iqtisodiy siyosati Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, uni rus mollari sotiladigan bozor sifatida ushlab turish va tabiiy boyliklarni markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Bu siyosatdan ko‘prok sanoat egalari-burjuaziya sinfi manfaatdor bo‘lgan. Shu maqsadda ulkaning ayniqsa markaziy shahriga kapitalistik korxonalarini olib kira bosh ladilar. Shaharda yangi sanoat korxonalari hamda savdo muassasalari vujudga keldi. Aholisi ham asosan yevropaliklar hisobiga o‘sса boshladi. 1913 yilda Toshkentda 11 sanoat korxonasi, jumladan, 15 paxta tozalash zavodi, 3,5 mingdan ortik hunarmandchilik o‘staxonasi, 22 rus va chet el savdo firmalarining bo‘limlari, 186 ta katta-kichik do‘kon bo‘lgan. Toshkentdagи Bosh temir yo‘l ustaxonasining 800 ishchisidan 120 tasi mahalliy millat vakili bo‘lgan». Toshkent aholisi ham tezlik bilan o‘sib borgan. Agar solish tiradigan bo‘lsak 1865 yilda Toshkentda aholi 76 ming kishidan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 1910 yilga kelib 146 mingga yetgan. 1917 yilda Turkiston da sovet hokimiyati o‘rnatildi. 1918 yilda Turkistonga avtonomiya huquqi berildi va Toshkent shahri poytaxt deb e’lon kilindi. 1924 yilda O‘zbekiston poytaxti Samarqandga ko‘chirildi. 1930 yildan Toshkent yana poytaxt bo‘ldi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin ham Toshkent aholisini ko‘paytirish siyosatidan voz kechilmadi. O‘zbekistonda Sovet xokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industrlash tirish siyosatini amalga oshirishga kirishildi. Sanoat kurilishini jadallashtirish maksadida respublikaga Rossiyaning markaziy xududlaridan malakali ishchilar, muxandis texnik xodimlar ko‘chirib keltirildi. Sun’iy migratsiya ruslash tirish siyosatining muhim vositasi bo‘lib xizmat kildi. Bu esa mahalliy millatlardan malakali ishchilar va muxandis-texnik kadrlar tayyorlashga to‘siq qo‘yishning o‘ziga xos yo‘li vazifasini o‘tadi. Ikkinci jahon urushi yillarida Toshkent Sovet Armiyasi uchun asosiy aslahaxonaga aylandi, sanoat butunlay frontga xizmat qildirildi. SSSRning garbiy rayonlaridan sanoat korxonalari, oliy o‘quv yurtlari va madaniyat idoralari Toshkentga ko‘chirildi. Urush bo‘layotgan yerlardan aholi Tosh kentga evakuatsiya kilindi. Ko‘chib kelgan aholi bosh pana va oziq-ovqat bilan ta’minlandi Bolalarga esa alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatildi. «Urush yillarida nemislar okkupatsiya qilgan viloyatlardan

evakuatsiya qilingan 300 m ing kishi, shu jumladan 200 m ingga yaqin bola Tosh kentga joylash tirildi». «Ko‘chirib keltirilganlarni ish ga joylash tirish Yu zasidan katta ishlar amalga oshirildi. 1941 yil 24 noyabrdan 31 dekabrgacha 37,6 mingdan ortik kishi, 1941-1942 yillarda kariyb 240 ming kishi joylash tirildi va ish bilan ta’minlandi». Urush yillarida Volgabo‘yi, Shimoliy Kavkaz, Qrim yarim orolidan, Gruziyadan bir qator xalqlar: nemislar, krim tatarlar, mesxet turklari, korachoylar, chechenlar, qalmiklar va boshqa xalqlar o‘z yurtidan majburan ko‘chirildi, ya’ni deportatsiya kilindi. Uzbek xalqining evakuatsiya qilinganlarni, quvgin qilinib maxsus ko‘chirib keltirilganlarga ko‘rsatgan beg‘araz yordami insonparvarlikning yorkin timsoli namunasidir. G‘alabdan keyin ham deportatsiya kilingan xalqlarga o‘z yurtliga ketishga imkon berilmadi, ularga sun’iy to‘siqlar qo‘yildi. 1966 yil 26 aprelda yuz bergen Toshkentda zilzila sodir bo‘ldi. Shahar jiddiy shikastlandi. Qardosh respublikalarning yordami bilan uch yarim yilda zilzila oqibatlari tugatildi. Shahar qaytadan rekonstruksiya kilinib, yangi turar joylar, mikrorayonlar, hashamatli jamoat binolari yuzaga keldi. Biroq, baynalminal yordam ko‘rsatganlarning aksariyati poytaxt shaharda qo‘nim topdilar. 70 yillarda Toshkent metropolitening birinchi yo‘li ishga tushirildi. Ayni shu davrlarda bir qator sanoat korxonalari ham kurila boshladi, Yangi sanoat tarmoqlari vujudga keltirildi. Lekin mehnat resurslari mahalliy ishchilar hisobidan emas, balki boshqa respublikalardan kelgan ishchi kuchi hisobidan ta’minlandi. Natijada qator sanoat shaharlarining aholisi asosan ko‘chib kelganlardan iborat bo‘lib qoldi. «1970 yilda ruslar, ukrainlar, beloruslar respublika poytaxti - Toshkent aholisining 44,1% o‘zbeklar esa 37% tashkil etdi». 2000 yillik tarixga ega bo‘lgan Toshkent shahri oddiy bir manzilgoxdan 329,7 km.kv. maydonga ega bo‘lgan yirik markaziy shaharga aylandi. Aholisi 1897 yilda - 156 ming kishi, 1926 yilda - 314 ming kishi, 1939 yilda - 556 ming kishi, 1959 yilda 927 ming kishi, 1970 yilda - 1385 ming kishi, 1977 yilda - 1689 ming kishi, 2004 yilga ma’lumotlar bo‘yicha 2157,8 ming kishiga yetdi. Toshkent aholisining yildan-yilga ko‘payib borishi shahar hududining kengayishiga olib keldi. Demografik jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar esa urbanizatsiya darajasini tezlash tirib yubordi.

## **Nazorat savollari**

1. Mustaqillik yillarida demografiya fani qanday rivojlanmoqda?
2. Aholini demografik joylashtirish qanday maqsadni ko‘zlagan?
3. Aholi bandligi to‘g‘risida Farmon qanday maqsadlarni ko‘zlab qa‘bul qilindi?
4. O‘zbeklarning tashqi migratsiyasi qaysi hududlarin qamrab olmoqda?
5. Demografik o‘sish Respublikamizning qaysi hududlarida tez kechayapti?
6. Demografiya fani maqsadi nimada?
7. Demografik o‘sish suratlari qaysi chet mamlakatlar bilan taqqoslanmoqda?
8. Demografiyani tartibga solish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOTLARINING MAZMUNI**

### **1-mavzu: Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish.**

#### **Reja:**

1. Mehnat resurslari joylashuvi jarayonlarini o‘rganish.
2. Mehnat resurslaridan foydalanish - ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

#### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Milliy davlat tizimini tahlil etish;
- Boshqaruvda yangi usullarning shakllantirilishini ochib berish;
- Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi jarayonlarini o‘rganish.

#### **Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlalmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

### **2-mavzu: Mustaqillik yillarida demografik jarayonlardagi o‘zgarishlar.**

#### **Reja:**

1. Aholi o‘sishi va joylashishi
2. Aholi o‘sishi jarayonlarining aholi yosh tarkibiga ta’siri.

#### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Jamiatni demokratlashuvida ommaviy axborot vositalarining rolini tahlil etish;
- Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lidagi harakatlarni ochib berish;
- Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati qaror topishi jarayonlarini o‘rganish.

### **Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

### **3-mavzu: Respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari.**

#### **Reja:**

1. Urbanizatsiyani jadallashtirish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar.
2. Ubanizatsiyani oqibatlari.

### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishini tahlil etish;
- Kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichlari va rivojlantirilishini o‘rganish;
- Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishini ochib berish;

### **Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

### **4-mavzu: Globallashuv davrida O‘zbekiston jahon migratsiya jarayonlari.**

#### **Reja:**

1. Mehnat migratsiyasi.
2. Ko‘pmillatli O‘zbekiston va demografik jarayonlar, davlat milliy siyosatining o‘rni, uning asosiy tamoyillari.

### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Bank-moliya tizimini mustahkamlashni tahlil etish;
- Erishilgan yangi marralarni o‘rganish;
- Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishini ochib berish;

### **Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

## **5-mavzu: Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’siri.**

### **Reja:**

1. O‘zbekistondagi demografik o‘zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta’sirini o‘rganish.
2. Yangi ish o‘rinlarini tashkil etishning demografik jarayonlarga ta’siri.

### **Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**

- Bank-moliya tizimini mustahkamlashni tahlil etish;
- Erishilgan yangi marralarni o‘rganish;
- Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishini ochib berish;

### **Amaliy mashg‘ulotning vazifalari:**

- yangi pedagogik texnologiyalar (“Klaster”, “Venn diagrammalar”) yoki interaktiv usullardan foydalangan holda tayyorlanadi.
- amaliy mashg‘ulot uchun material - aniq topshiriq (“Keys topshiriqlari”), topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar, ijodiy ishlanmalar (referat, esse)dan iborat dasturlar asosida tashkil etiladi.

## V. GLOSSARY

<b>Termin</b>	<b>O‘zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>DAVLAT</b>	butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv appartiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqara-digan va suverenitetga ega bo‘lgan siyosiy tashkilot.	<b>State</b> - a politically organized body of people under a single government
<b>DEMOGRAFIYa</b>	ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, geografik omillar sabab va shart – sharoitlar asosida nufuz dinami-kasi, migratsiyasi, o‘rnashushi, struk-turasi qonuniyatlarini o‘rganuvchi ijtimoiy-gumanitar soha.	<b>Demography</b> - a social and humanitarian sphere which studies principals of prestige dynamics, migration, settlement, structure on the bases of conditions and according to social, economical, biological, geographical factors.
<b>MIGRATSIYa</b>	Aholini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tishi	<b>Migration</b> – people migration plase
<b>AHOLI RO‘YXATI</b>	Biror mamlakatda yashayotgan aholini ro‘yxatga olish	<b>Registrar people</b> – country exist registrar people
<b>ShAHAR AHOLISI</b>	Sanoat markazida yashab ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan aholi.	<b>Electorate</b> – the people who can vote in an election.
<b>INSTITUT (siyosiy)</b>	jamiyat hayotining siyosiy va boshqa sohalarini boshqaruvchi rasmiy hamda norasmiy qoidalar, tamoyillar, me’yorlarning barqaror majmuasini anglatuvchi tushuncha (masalan, hokimiyat instituti, yetakchilik instituti va boshqalar.)	<b>Institute</b> - to begin or create (something, such as a new law, rule, or system)
<b>KONSTITUTSIYa</b>	davlatning asosiy qonuni, jamiyat va davlat tuzilishi	<b>Constitution</b> – the system of beliefs and laws by

	asoslarini, davlat organlari tizimi, ularning tashkil topish va faoliyat yuritish tartibi, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi hujjat.	which a country, state, or organization governed
<b>VIJDON ERKINLIGI</b>	jamiyat konstitutsiyasi va qonunlarida berilgan diniy e'tiqod erkinligi.	<b>Freedom (liberty) of conscience</b> – freedom of a religious belief given in the constitution and laws of the society
<b>DEFORMATSIYa</b>	nimaningdir shaklini o'zgartirish	<b>Deformation</b> – changing (modification) of something, alteration of form or shape
<b>DIVERSIFIKATSI Ya</b>	siyosiy muammoga turlicha yondashuvlar uyg'unligi, siyosiy faoliyat uslublarining rang-barangligi.	<b>Diversification (diversity)</b> – a complex of approaches to the political problem, diversity of political styles of activity
<b>DINIY BAG'RIKENGLIK</b>	milliy istiqlolmaf kurasining asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir vatanda kelajak maqsadi uchun ezgu orzu-umidlar yo'lida birlashib, hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.	<b>Religious tolerance</b> – it is one the main ideas of national ideology of independence, it means to live in one homeland united with people of different religious beliefs friendly on the way of achieving good future objective and dreams
<b>KONSEPSIYa</b>	siyosiy – u yoki bu siyosiy muammolarni hal etishga qarashlar va yondashuvlarning yaxlit tizimi	<b>Conception</b> – the sum of a person's ideas and beliefs concerning something
<b>KORRUPSIYa</b>	davlat va jamiyatning turli mansabдор shaxslari orasida amalda bo'lgan poraxo'rlik, pora bilan sotib olish	<b>Corruption</b> – dishonest or illegal behavior especially by powerful people (such as government officials or

		police officers)
<b>MAJORITAR</b>	ko‘pchilikka taalluqli, ko‘pchilikka asoslangan.	<b>Majority</b> - the group or party that is the greater part of a large group
<b>MAHALLA</b>	O‘zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko‘rsatayotgan, aholi yashaydigan ma’muriy-hududiy birlik, yushma.	<b>Mahalla</b> – administrative and territorial unit, community of the population in Uzbekistan, it has been forming during many centuries which is still functioning.
<b>MUSTAQILLIK</b>	davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo‘lmay faoliyat ko‘rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo o‘zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o‘zaro tinch-totuv yashashning prinsiplaridan biridir. U BMT Ustavi va xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalarda mustahkamlab qo‘yilgan.	<b>Independence</b> – freedom from outside control or support: the state being independent
<b>NORMATIV</b>	me’ynni, standartlarni o‘rnatuvchi, qoidalarni belgilovchi	<b>Norm</b> – something (such as a behavior or way of doing something) that is usual or excepte
<b>PREZIDENT</b>	saylash huquqi asosida saylangan davlat rahbari. Parlamentli respublikalarda, odatda, parlament tomonidan, prezidentlik respublikalarida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita saylovlar yo‘li bilan saylanadi	<b>President</b> – the head of the government elected on the bases of election

<b>RESPONDENT</b>	siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik tadqiqotlari ishtirokchisi, savollarga javob beruvchi, so‘rovnoma asosida o‘zfikrini bildiruvchi, intervyyu beruvchi sifatidagi shaxs	<b>Respondent</b> – a person who gives a response to a question that is asked especially as part of a survey
<b>REFERENDUM</b>	umumxalq ovoz berishi, mamlakat hayotidagi biron-bir muhim masala bo‘yicha xalqning fikrini bilish. R. natijalari imperativ hisoblanadi, ya’ni ular uzil-kesil hal etilgan sanalib, ijro etish majburiydir	<b>Referendum</b> – an event in which the people of a country, state, etc., vote for or against a law that deals with a specific issue: a public vote on a particular issue
<b>DINIY BAG‘RIKENGLIK</b>	milliy istiqlolmaf kurasining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, turli diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilar ning bir vatanda kelajak maqsadi uchun ezgu orzu- umidlar yo‘lida birlashib, hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi.	<b>Religious tolerance</b> – it is one the main ideas of national ideology of independence, it means to live in one homeland united with people of different religious beliefs friendly on the way of achieving good future objective and dreams
<b>KONFESSIYa</b>	muayyan yo‘nalishdagi diniy e’tiqod.	<b>Confession</b> – the act of telling your sins to God or to a priest
<b>MAFKURA</b>	ma’lum bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh, partiya yoki millatning tub manfaati, maqsad va vazifalarini nazariy asoslab himoya qiluvchi, shu maqsad yo‘lida ularni birlashtiruvchi, safarbar qiluvchi falsafiy, siyosiy, axloqiy, diniy, huquqiy qarashlarning sistemalashtirilgan ilmiy bilimlar majmuasidan iboratdir.	<b>Ideology</b> – the set of ideas and beliefs of group or political party
<b>MAHALLA</b>	O‘zbekistonning muayyan	<b>Mahalla</b> – administrative

	tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko‘rsatayotgan, aholi yashaydigan ma’muriy-hududiy birlik, yushma.	and territorial unit, community of the population in Uzbekistan, it has been forming during many centuries which is still functioning.
<b>MA’NAVIYAT</b>	kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadi.	<b>Spirituality</b> – a set of notions and religious, behavioral, artistic, aesthetic, legal, philosophical imaginations of man
<b>GLOBALLAShUV</b>	axborot texnologiyalari, mahsulotlari va tizimlarining butun dunyoga tarqalish jarayoni. U iqtisodiy va madaniy jihatlardan qaraganda uyg‘unlashuvga olib keladi. Bu jarayonning tarafdarlari bundan keyingi taraqqiyot imkoniyatlarini faqat global axborot jamiyatiining rivojlanish sharoitlarida ko‘rishadi.	process of international integration arising from the interchange of, products, ideas and other aspects of. Advances in, such as the, and in infrastructure, including the rise of the and its modern offspring and have been major factors in globalization, generating further of economic and cultural activities.
<b>DEMOGRAFIYa</b>	ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, geografik omillar sabab va shart – sharoitlar asosida nufuz dinami-kasi, migratsiyasi, o‘rnashuvi, struk-turasi qonuniyatlarini o‘rganuvchi ijtimoiy-gumanitar soha.	Demography - a social and humanitarian sphere which studies principals of prestige dynamics, migration, settlement, structure on the bases of conditions and according to social, economical, biological, geographical factors.
<b>FUNDAMENTALIZM</b>	butun musulmon jamiyatini ilk Islom, Qur’on va shariat «ah-kom»lari talablariga ko‘ra	<b>Fundamentalism</b> – a movement or attitude stressing strict and

	<p>o‘zgarti-rishni yoqlab har qanday yangilik-larni Islomga kiritishga qarshi chiqadi va ilk Islom davriga qaytishni maqsad qilib qo‘yadi.</p> <p>Muayyan dinning vujudga keli-shidagi ilk davriga qaytish va shu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suradi. Islom fundamentalizmi si yosiylashgan oqim bo‘lib, «hokimiylig» tamoyiliga, ya’ni jamiyatda faqatgina Olloh tomonidan o‘rnatilgan qonunlargagina amal qilish lozimligiga sodiq qolishida nomo yon bo‘ladi. Boshqacha aytganda diniy qonunlardan boshqa amal qila yotgan qonunlar hech qanday kuchga ega emas deb hisoblaydilar. Shu asosda dunyoviy davlat tizimini inkor etadilar.</p>	<b>literal adherence to a set of basic principles</b>
--	---	---

## **VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oly bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

18. Boboev V. Aholi migratsiyasi va milliy madaniyatlar ravnaqi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1985. - 25 b.

19. Boroday S.G.Mirzacho‘l yarlarni o‘zlashtirishda kolxoz va sovxozi tajribasi. –Tashkent: “Qizil O‘zbekiston, Pravda Vostoka, O‘zbekiston Surxoni birlashgan nashriyoti”, 1957. 56 b.

20. Vtoraya mirovaya voyna. Itogi i uroki. – Moskva: Voenizdat, 1985. – 212 b.

21. Gafurov V.G. Voprosy orosheniya selinnix zemel Golodnoy stepi. –Toshkent: Uzbekistan, 1968. – 118 b.

22. Gorbachyov O.V. Na puti k gorodu: selskaya migratsiya v sentralnoy Rossii (1946-1985 gg) i sovetskaya model urbanizatsii. –Moskva: Izdatelstva. MPGU, 2002. – 158 s.

23. Djabborov N. Voprosy orosheniya i razvitiya polivnogo zemledeliya (Na materialax selinniyx massivov Uzbekistana) –Toshkent: Uzbekistan, 1973. 176 s.
24. Djalilov X.M.Xlopkovye sovhozys Golodnoy stepi i ix razvitie. Tashkent: Gosudarstvennoe Izdatelstvo Uzbekskoy SSR, 1959. – 127 s.
25. Dinamika naseleniya SSSR 1960-1980/ K.D.Vasileva, I.I. Yeliseva., O.N.Kashina., V.I.Lapatev. –Moska: Finansy i statistika, 1985. – 176 s.
26. Drobijev V.Z. Dvijenii naseleniya v SSSR i sotsialny progress. –Moskva: Znaniya, 1974. – 63 s.

#### **IV. Internet saytlar**

27. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
28. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
29. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
30. [www.Britishcouncil.org](http://www.Britishcouncil.org) – Britaniya kengashi veb sayti
31. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Ta’lim portalı
32. [busyteacher.org](http://busyteacher.org) – Til o‘rganish veb sayti